

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

O‘ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI

**“HUQUQSHUNOSLIK. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KONSTITUTSIYASI”
FANIDAN MA‘RUZA MATNI**

Ushbu ma'ruza matnda O'zbekiston Respublikasining milliy huquq tizimi asoslari kiritilgan bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va huquqshunoslik fanidagi mavzular bo'yicha nazariy va amaliy ma'lumotlar keltirilgan.

Taqdim etilayotgan ma'ruza matnda - huquqiy ko'rsatma (yo'l-yo'riq) umumiy ijtimoiy yo'naltirilganligi haqida tushuncha berish, talabalarga qonunchilik tizimini to'g'ri anglab olish, ularning yuridik mazmunining ijtimoiy hayotidagi real hodisa – voqealar bilan taqqoslay olish qobiliyatini singdirishdan iborat. Ma'lumki bunday qobiliyatga ega bo'lmay turib huquqiy tafakurning eng oddiy ko'nikmalarini ham hosil qilish mumkin emas.

Fanning asosiy mazmuni Prezidentimiz I.A. Karimov aytganidek: “Endiki dolzarb vazifamiz – bu jarayonlarning ilmiy – nazariy asoslarini, ularning yangi-yangi qirallarini mukammal ochib berish, o'quvchilarimiz va talabalarimizga, keng jamoatchilikda sodda, lo'nda qilib tushuntirib berish va ularni yangi hayot, zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol va jo'shqin ishtirokchilariga aylantirishdan iborat”

Ma'ruza matnda oliy o'quv yurtlari uchun bakalavr ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini qayta ko'rib chiqish va yangilarini yaratish bo'yicha Respublika Muvofiqlashtirish komissiyasi tavsiya etgan Namunaviy o'quv dasturlar («Huquqshunoslik». – Toshkent, 2004 yil; «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish». – Toshkent, 2004 yil) asosida tuzildi.

Mundarija:

1-ma'ruza. «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish» o'quv kursining predmeti, maqsadi va vazifalari.

1.1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 4-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida»gi Farmoyishi va uning ahamiyati. O'quv kursining maqsadi va vazifalari _____ 4-6

1.2.Konstitutsiyani o'rganish o'quv kursining predmeti va o'qitish metodologiyasi _____
_____ 6-7

1.1. «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish» o'quv kursi O'zbekiston Konstitutsiyaviy huquqining tarkibiy qismi _____ 7-9

1.2. Konstitutsiyaviy huquq va siyosiy tizim _____ 9-10

2-ma'ruza. O'zbekistonning 1992 yilgi Konstitutsiyasining vujudga kelishi.

2.1. O'zbekistonning konstitutsiyaviy tarixi _____ 10-12

2.2. O'zbekiston Respublikasining mustaqil, suveren davlat deb e'lon qilinishi va yangi Konstitutsiyani qabul qilishning zarurligi _____ 12-13

2.3.O'zbekistonda Konstitutsiyaviy islohotlarning xususiyatlari va asosiy bosqichlari _____ 13-15

2.4. Konstitutsiyaning tuzilishi va unga o'zgartirish kiritish tartibi _____ 15-16

3-ma'ruza. Konstitutsiyaning davlat va jamiyat hayotida to'tgan o'rni va ahamiyati.

- 3.1. Konstitutsiya - davlatning asosiy qonuni_____ 17
- 3.2. Konstitutsiya barqarorlik manbai va uning yuridik xususiyatlari_____ 17-18
- 3.3. Konstitutsiyaning davlat va jamiyat hayotidagi o'рни. Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar tushunchasi va sub'ektlari_____ 18-19
- 3.4. O'zbekiston Konstitutsiyasining sobiq sho'ro tuzumi Konstitutsiyalaridan farqi va o'ziga xos jihatlari_____ 19-20

4-ma'ruza. Mustaqil O'zbekistonning 1992 yilgi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari.

- 4.1. Konstitutsiyaning davlat, millat, xalq suvereniteti prinsiplari va ularning mohiyati_____ 21-23
- 4.2. Xalq hokimiyatchiligi va uni amalga oshirish prinsipi_____ 24-25
- 4.3. Hokimiyatning taqsimlanishi prinsipi_____ 25-26
- 4.4. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi prinsipi_____ 26-28
- 4.5. O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatining asosiy prinsiplari_____ 28-30

5-ma'ruza. O'zbekiston Respublikasining milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishi.

- 5.1. Inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari haqidagi konstitutsiyaviy qoidalar_____ 31-32

5.2.	Fuqarolik va uning konstitutsiyaviy asoslari	32-35
5.3.	Fuqarolarning huquq va erkinliklarining asosiy turlari	35-36
5.4.	Shaxsiy huquq va erkinliklar	36-39
5.5.	Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar	39-42
5.6.	O'zbekistonda inson huquqlarining konstitutsiyaviy kafolatlari	42-43
5.7.	Fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlari	43-47

1-ma'ruza. «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish» o'quv kursining predmeti, maqsadi va vazifalari.

Reja:

- 1.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 4-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida»gi farmoyishi va uning ahamiyati. O'quv kursining maqsadi va vazifalari.
- 1.4. Konstitutsiyani o'rganish o'quv kursining predmeti va o'qitish metodologiyasi.
- 1.3. «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish» o'quv kursi O'zbekiston Konstitutsiyaviy huquqining tarkibiy qismi.
- 1.4. Konstitutsiyaviy huquq va siyosiy tizim.

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 4 yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida»gi farmoyishi va uning ahamiyati. O'quv kursining maqsadi va vazifalari. Mustaqillik yillarida fuqarolarning, ayniqsa, yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirishga katta e'tibor berib kelinmoqda. Biroq, bugungi kunga qadar turli bosqichdagi maktab va o'quv yurtlarida davlat va huquq asoslarini o'qitish masalalariga turlicha yondashib kelindi. O'qitish uchun ajratilgan soatlar ham, o'qitiladigan mavzular, hatto huquqdan dars beruvchi o'qituvchilar ham mutaxassisliklariga ko'ra turlichadir.

Prezident Islom Karimovning 2001-yil 4-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida»gi farmoyishi asosida mamlakatimiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida O'zbekiston Konstitutsiyasini o'rganish o'quv kursining joriy qilinishi yuqorida ta'kidlangan davlat va huquq asoslarini o'qitishdagi turlicha yondashuvlarga barham berdi. Farmoyishga asosan 2001-yil 1-sentabrdan boshlab respublikada uzluksiz ta'lim

tizimida bog'chadan tortib to oliy ta'limning yuqori bosqichi – magistraturagacha huquqiy bilimlarni o'rganish Konstitutsiyadan boshlanadigan bo'ldi.

Barcha ta'lim turlari uchun bolalar va o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan Konstitutsiyani o'rganish bo'yicha dasturlar, darsliklar va o'quv qo'llanmalari yaratish vazifasi kun tartibiga qo'yildi.

Qisqa muddat ichida respublika ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari uchun darsliklar va o'quv qo'llanmalari tayyorlanib, ularda Konstitutsiyani o'rganish kursi, O'zbekiston Konstitutsiyasining ma'no-mazmuni va mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, O'zbekiston konstitutsiyaviy tuzumining asosiy prinsiplari, inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlari hamda ularning kafolatlanishi, jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarning asoslari, O'zbekiston Respublikasining davlat tuzilishi va ma'muriy-hududiy tuzilishi, davlat hokimiyati organlarining tizimi, ularning tuzilish tartibi, vakolatlari va faoliyat shakllari o'z aksini topdi.

O'zbekiston Konstitutsiyasini o'rganish o'quv kursi O'zbekiston konstitutsiyaviy huquqining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'z maqsad va vazifalariga egadir. O'quv kursining maqsadiga quyidagilar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining davlat va jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini, ma'no-mazmunini hamda mohiyatini o'rganish;
- fuqarolarning huquqiy ongi, huquqiy madaniyatini muntazam yuksaltirish, Asosiy Qonunni mukammal o'zlashtirish, uni keng targ'ibot-tashviqot qilish.

O'zbekiston Konstitutsiyasini o'rganish o'quv kursining vazifasi:

- O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining asosiy prinsiplarini;
- fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini;
- jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarni;
- jamiyatning iqtisodiy asoslarini;
- O'zbekistonning ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishini;
- O'zbekiston Respublikasining saylov tizimini;

- O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining oliy va mahalliy organlarining tuzilishini;
- O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyatining amalga oshirilishini;
- O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tashkil etilishi va vazifalarini;
- O'zbekiston Respublikasi moliya va kredit tizimi tuzilishini;
- O'zbekiston Respublikasi mudofaasi va xavfsizligining ta'minlanishini;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritish tartibini o'rganishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining huquq tizimida Konstitutsiya muhim o'rin tutadi. Konstitutsiya huquq tizimining birlamchi asosi hisoblanadi. U huquq tarmoqlari birligini, o'zaro muvofiqligini hamda harakatlanish prinsiplarining yagonaligini ta'minlaydi. Huquqiy davlat barpo etish yo'lidan borayotgan davlatimizda huquq ustuvorligini ta'minlash muhim vazifa hisoblanadi. Konstitutsiyaning ustuvorligi esa fuqarolardan huquqiy mas'uliyatni talab etadi, ya'ni bu huquqiy mas'uliyat konstitutsiya va qonunlarni bilishni, ularga amal qilib yashashni talab etadi. Bu hol Konstitutsiyani o'rganish zarurligini belgilaydi. Chunki uni o'rganish Konstitutsiya mazmunini ifodalovchi huquqiy qoidalar, ularga ongli ravishda amal qilib yashash va qonun ustuvorligiga erishishning muhim shartidir.

Har bir fuqaroning o'z huquq, erkinlik va burchlarini yanada chuqurroq anglashida qonunlarni bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Konstitutsiya huquq va erkinliklarni mustahkamlash bilan birga fuqarolar zimmasiga burch va mas'uliyat ham yuklaydi. Konstitutsiyani bilgan kishi o'z xatti-harakatini qonun doirasida amalga oshiradi. Boshqa kishilarning hamda jamiyat va davlatning huquqi va erkini hurmat qiladi.

Agarda jamiyat hayotiga e'tibor bilan nazar tashlaydigan bo'lsak, kishilarning huquqiy bilimlari bir xil emasligining guvohi bo'lamiz. Ba'zilar Konstitutsiya va qonunlarni yaxshi bilishga, uni o'rganishga, o'z hayotlarida konstitutsiyaviy qoidalarni qo'llashga ahamiyat bermaydilar. Bosh qonunning ma'no-mazmunini anglamaydigan fuqaro jamiyatda o'z huquqini himoya qila olmaydi.

Agar gap inson huquqi, erki va burchi to'g'risida borar ekan, Konstitutsiya o'zining normalarida uni odilona yechishi lozim bo'ladi va eng muhimi ana shu huquq va erkinliklarni ta'minlaydigan, qo'riqlaydigan davlat hokimiyatini tashkil etadigan o'ta murakkab masalani hal qiladi.

Xalq hokimiyatchiligiga asoslangan demokratik davlat organlarini tashkil etish qonun ustuvorligiga asoslangan ijroiya hokimiyatini, mustaqil sud hokimiyatini, mahalliy o'zini o'zi boshqarish tartibini o'rnatishni taqozo etadi. Konstitutsiya o'z normalarida inson va davlat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solar ekan, u davlatning mohiyatini, shaklini ham belgilab beradi. Darhaqiqat, u yoki bu davlatning Konstitutsiyasiga qarab hokimiyatning maqsad va mohiyatini aniqlash unchalik qiyin ish emas.

Konstitutsiya, birinchi navbatda, davlat boshqaruv shakli va davlat hokimiyatini tashkil etish me'yorlarini o'rnatadi. Bunda u avvalam bor uning asosiy prinsiplari, manbalari nimalardan iborat ekanligini aniq ko'rsatadi. Bu o'rinda hokimiyatning taqsimlanishi, davlat boshqaruv shakli, ko'ppartiyaviylik, hur fikrlilik, vijdon erkinligi, mulk huquqi kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ana shu prinsip va qoidalarga asosan Konstitutsiya davlat hokimiyatining tizimi va organlarini, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soladi. Bu o'rinda Konstitutsiya davla hokimiyatining taqsimlanishi nazariyasini amalga oshirib, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini o'zaro tiyib turish va muvozanatda tutib turish qoidalarini qonunlashtiradi.

Konstitutsiya normalaridagi yana eng muhim masalalardan biri – bu inson va davlat o'rtasidagi munosabat masalasidir. Bunda asosiy diqqat e'tibor insonning erki, sog'lig'i, hayoti, mulki kabi huquqlarining ta'minlanishiga va kafolatlanishiga qaratiladi. To'g'ri, insonning ko'p huquqlari Konstitutsiyada ko'rsatilmaydi, ular huquqning boshqa sohalarida, masalan, mehnat huquqi, fuqarolik huquqi va shu kabilarda batafsil bayon etiladi. Ammo Konstitutsiyada insonning tabiiy huquqlari, ya'ni yashash, mehnat qilish, kasb tanlash, mulkdor bo'lish hamda barchaning qonun oldida tengligi kabi huquqlarining muqaddasligi va daxlsizligi aniq belgilab qo'yiladi. Masalan, shaxs sudning hukmisiz ozodlikdan mahrum etilmaydi yoki

uning mulki, turar joyi daxlsizligi va hokazo. Davlat insonga xizmat qiladi va uning oldida mas'uldir.

Konstitutsiyada mustahkamlangan muhim qoidalardan yana biri – bu davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabat masalasidir. Albatta, davlat qonunlar orqali jamiyatda tartib o'rnatadi. U o'tish davrida asosiy islohotchilik vazifasini bajaradi. Bu davlat jamiyat ustidan hukmronlik qiladi, degan ma'noni bildirmaydi. Davlat ham jamiyatning asosiy bir bo'g'ini sifatida amal qiladi. Jamiyat davlatdan ko'ra kengdir. Jamiyat davlat, nodavlat va joylarda o'zini o'zi boshqarish organlarini mujassamlashtirgan holda bir butun tarzda namoyon bo'ladi. Bu va shu kabi konstitutsiyaviy qoidalarni o'rganish kishilarni o'z huquqlarni himoya qilishiga, jamiyat va davlat ishlarida ongli suratda ishtirok etishiga ko'maklashadi.

1.2. Konstitutsiyani o'rganish o'quv kursining predmeti va o'qitish metodologiyasi. Boshqa fanlar kabi Konstitutsiyani o'rganish fani ham o'z predmetiga ega. Ularni har tomonlama chuqur bilish Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini anglab olishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyati, unda mustahkamlangan normalar va ularni amaliyotda qo'llash o'quv kursining predmetini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o'rganish o'quv kursining predmeti quyidagilarni o'rganishni tashkil etadi:

- konstitutsiyaviy huquq tarmog'iga xos rivojlanish qonuniyatlarini, belgilarini va xususiyatlarini;
- konstitutsiyaviy huquqning nazariy masalalarini;
- konstitutsiyaviy huquq normalari va institutlarini;
- O'zbekiston Konstitutsiyasining davlatimiz rivojidagi o'rni va ahamiyatini;
- Konstitutsiyaviy huquq normalarining amal qilish mexanizmlarini;
- Konstitutsiyaviy-huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarni;
- Konstitutsiyaviy normalarning huquqning boshqa tarmoqlaridagi normalar va institutlar bilan munosabatini;

- O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va siyosiy tuzumi asoslarini o'rganishni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish o'quv fani o'zi o'rganadigan masalalarni o'rganish usullariga, ya'ni o'zining metodologiyasiga ega. Metod – bu maxsus ma'noda bilish vositasi, o'rganiladigan mavzuni tafakkurda hosil qilish yo'lidir. Bu usullarga quyidagilarni ko'rsatish mumkin: Konstitutsiyani o'rganishda ilmiy yondashuv, nazariy va amaliy tahlil, qiyosiy tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, o'zaro bog'liqlik va aloqadorlik, siyosiy va huquqiy hurfikrlilik, huquqiy dalillardan foydalanish, umumlashtirish va xulosalar chiqarish kabi usullarni ko'rsatish mumkin. Bu usullardan samarali foydalanish Konstitutsiyaning mazmuni va mohiyatini to'g'ri tushunishga yordam beradi.

Konstitutsiyaning mazmuni shunday tuzilganki, undagi qoidalarga aniq va to'g'ri, sinchkovlik bilan yondashishni talab qiladi. Chunki Konstitutsiyaning mazmuniga e'tiborsiz yoki yuzaki yondashuv noto'g'ri xulosalar chiqarishga olib kelishi mumkin. Konstitutsiyaviy qoidalarni har kim o'z bilimi va tayyorgarligi darajasidan kelib chiqib, bu konstitutsiyaviy qoidalarni bajarishi mumkin emas. Talab shundan iboratki, Konstitutsiyaviy qoidalarning tub mazmunini hamma bir xilda tushunishi lozim. Konstitutsiyani o'rganish usullari konstitutsiyaviy qoidalarning asl mohiyati qanday bo'lsa, shundayligicha teran idrok etilishi lozim. Shundagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

O'zbekiston Konstitutsiyasini o'rganish kursi ijtimoiy va tabiiy fanlar bilan yaqin aloqadorlikda ish ko'radi. Konstitutsiyaning barcha huquq fanlari tizimida asosiy o'rin tutishini hisobga olsak, huquq fanlarining mazmunini yoritishni Konstitutsiyasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Konstitutsiya qoidalarida qo'llanilgan tushunchalarni to'laroq o'zlashtirishda huquq fanlarining ahamiyati kattadir.

Konstitutsiyani o'rganish fani shuningdek tarix, politologiya, O'zbekistonda demokratik jamiyat ko'rish nazariyasi va amaliyoti, ma'naviyat asoslari kabi fanlar bilan ham aloqadarlikdadir. Ma'lumki, bu fanlarni o'rganish jarayonida Konstitutsiya va unga tegishli huquqiy tushunchalarga duch kelinadi. Bu fanlarda ularning fan sifatida o'ziga xos mazmuniga monand keladigan tushunchalari

Konstitutsiya bilan bog'lab tushuntiriladi. Masalan, tarix fanida davlat, Konstitutsiyaning qabul qilinishi, uning jamiyat taraqqiyotida to'tgan o'rni tarixiy nuqtai nazardan o'rganilsa, politologiya fanida davlat tashqi siyosatini yoritishda uning konstitutsiyaviy asoslariga murojaat etiladi. O'zbekistonda demokratik jamiyat ko'rish nazariyasi va amaliyoti fanini o'qitishda esa «fuqaro-jamiyat-davlat» o'rtasidagi munosabatda qonun ustuvorligi prinsipining konstitutsiyaviy jihatlari ochib beriladi. Tabiiy fanlarda esa yer va tabiatni asrab-avaylash hamda muhofaza qilish masalalarini yoritishda Konstitutsiyaviy qoidalardan foydalaniladi.

O'zbekiston Konstitutsiyasini o'rganish fani ana shu fanlardan olgan tushuncha va bilimlarni huquqiy jihatdan mustahkamlaydi, davlat va huquqqa oid bilimlarni boyitishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Konstitutsiyasini o'rganish fanining manbalariga O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Konstitutsiya asosida qabul qilingan qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari kiradi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga oid maxsus tadqiqot ishlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ommaviy axborot vositalarida Konstitutsiyaga oid e'lon qilingan maqolalar, hamda huquqqa oid ma'naviy merosimiz tashkil etadi. Ulardan foydalanish Konstitutsiyani o'rganishda bizga yaqindan yordam beradi.

1.3. «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish» o'quv kursi
O'zbekiston Konstitutsiyaviy huquqining tarkibiy qismi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o'rganish o'quv kursining mazmunini to'la anglab olish uchun avvalo, Konstitutsiyaviy huquq tushunchasini bilib olish zarur. Chunki O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o'rganish o'quv kursi Konstitutsiyaviy huquq fanining tarkibiy qismini tashkil etadi.

Konstitutsiyaviy huquqni milliy huquq tizimining asosiy tarmog'i sifatida o'rganishda quyidagilarga e'tibor berish lozim: birinchidan, konstitutsiyaviy huquq boshqa huquq tarmoqlari kabi davlat tomonidan o'rnatiladi va qo'riqlanadi. Ikkinchidan, konstitutsiyaviy huquq boshqa huquq tarmoqlaridan o'z mohiyati va

mazmuniga ko'ra farq qiladi, ya'ni u davlatning eng asosiy huquqiy normalarini ifoda etib, boshqa huquq sohalaridan farqli o'laroq, ustunlik va umumhuquqiy prinsiplar o'rnatuvchi xarakterga ega.

Konstitutsiyaviy huquq eng avvalo, inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini muhofaza etuvchi, kafolatlovchi va shu maqsadlarda uni himoyalovchi davlat hokimiyatining muayyan tizimini ta'xis etuvchi normalar yig'indisidir.

Hozirgi zamon sivilizatsiyasining muhim qoidalari talabiga ko'ra davlat inson uchun, uning erkinliklarini muhofaza qilish va yaxshi turmush sharoitini ta'minlash uchun xizmat qilishi lozim. Buning uchun hokimiyat bilan fuqarolar erkinligi o'rtasidagi muvozanat ta'minlanishi zarur. Bu vazifani konstitutsiyaviy huquq amalga oshiradi.

Huquqning bu tarmog'i ijtimoiy hayotning bunday muhim va murakkab sohasini tartibga solganligi sababli u huquq tizimida yetakchi o'rin tutadi. Aslida, butun milliy huquq tizimi, barcha huquq tarmoqlarining shakllanishi konstitutsiyaviy huquqdan boshlanadi. Uning huquq tizimini tashkil etishdagi roli ham shundadir. U yoki bu mamlakatning milliy huquqidagi birorta tarmoq konstitutsiyaviy prinsiplar yoki konstitutsiyaviy qonunchilik normalariga tayanmasa yoki, aksincha, unga zid kelsa, aslo rivojlana olmaydi.

Huquqning boshqa tarmoqlari kabi konstitutsiyaviy huquq ham o'z predmetiga ega. Uni bilib olish esa huquqiy tartibga solishning o'ziga xosligini aniqlash, demak, huquqning bu tarmog'i mundariyasi, vazifasi va maqsadlari haqida, uning boshqa tarmoqlardan farqi to'g'risida tushunchaga ega bo'lish uchun zarurdir. Konstitutsiyaviy huquq predmetini belgilash muhim ahamiyatga ega, chunki huquqning bu tarmog'ida gap to'g'ridan-to'g'ri inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlari haqida boradi.

Zero, gap inson huquqi, erki va burchi to'g'risida borar ekan, Konstitutsiya o'zining normalarida uni odilona yechishi va eng muhimi ana shu huquq va erkinliklarni ta'minlaydigan, qo'riqlaydigan davlat hokimiyatini tashkil etadigan o'ta murakkab masalani hal qiladi.

Inson erkinligini tabiiy holat deb e'tirof etish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish murakkab ishdir. U faqat huquqlarigina emas, balki insonning boshqa odamlarga va davlatga munosabati borasidagi majburiyatlarini ham mustahkamlashni ko'zda tutadi. Erkinlik absolyut bo'lishi mumkin emas. Uni suiiste'mol qilishning oldini olish uchun muayyan cheklashlar zarur. Konstitutsiyaviy huquq faqatgina huquqni e'lon qilish bilan cheklanmay, uning huquqiy kafolatlarini ham yaratadi. U shunday davlat ta'sis etadiki, bunday davlat erkinliklarning «tungi qorovuli»ga aylanib qolmay, odamlarning farovonligini ta'minlash uchun sharoit yaratish majburiyatini oladi.

Xalq hokimiyatchiligiga asoslangan demokratik davlat organlarini tashkil etish qonun ustuvorligiga asoslangan ijroiya hokimiyatini, mustaqil sudni, mahalliy o'zini o'zi boshqaruvini o'rnatishni taqozo etadi.. Konstitutsiya o'z normalarida inson va davlat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solar ekan, u davlatning mohiyatini, shaklini ham belgilab beradi. Har qanday davlatning Konstitutsiyasi shu davlatda amalda bo'lgan hokimiyatning maqsadi va mohiyatini o'zida aks ettiradi.

Masalan, totalitar davlatda konstitutsiyaviy huquqning roli rasmiy, qotib qolgan amaliyot bilan cheklangan va ta'sirsizdir, chunki butun real hokimiyat yagona partiya, sinf qo'lida bo'ladi va diktatorlik usullari bilan amalga oshiriladi. Ammo demokratik davlatda bu huquqning muttasil rivojlanishi siyosiy fikrlar xilma-xilligi ta'siri ostida amalga oshadi. Bu hol, ayniqsa, hozirgi paytda demokratiyaga o'tish davrini boshidan kechirayotgan O'zbekiston uchun xarakterlidir. Bu yerda konstitutsiyaviy huquqning o'zi islohotlarning ob'ekti bo'lishi bilan birga, fuqarolar tinchligi va osoyishtaligi uchun zarur sharoitldar yaratadi. Turli siyosiy, shu jumladan, ekstremistik va aqidaparast kuchlarning hokimiyat uchun kurashi yo'lga qonuniy va adolatli to'siq qo'yadi. Avtoritar davlatlarda esa hokimiyat yagona shaxs qo'lida bo'lishi mumkin va hokazo.

Konstitutsiya birinchi navbatda davlat boshqaruv shakli va davlat hokimiyatini tashkil etish me'yorlarini va qoidalarini o'rnatadi. Ana shu me'yorlar va qoidalarga

asosan Konstitutsiya davlat hokimiyatining tizimi va organlarini, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soladi.

Konstitutsiyaviy huquq tomonidan «ijtimoiy tuzum asoslari»ning tartibga solinishi masalasida xorijiy xuquqshunoslarning fikri turlichadir. Eski konstitutsiyaviy aktlar amalda bo'lgan mamlakatlarda (AQSh va Buyuk Britaniya va boshq.) bu haqda fikr bildirilmaydi. Ammo konstitutsiyalari ikkinchi jahon urushidan keyin va so'l kuchlar ta'siri ostida qabul qilingan mamlakatlar (Fransiya, Italiya, Portugaliya va boshq.)ning asosiy qonunlarida «Iqtisodiy tuzum», «ijtimoiy-etnik munosabatlar» haqidagi bo'limlar mavjud. Biroq ular insonning tabiiy huquq va erkinliklari institutiga hech qanday ta'sir o'tkazmadi va davlatning ijtimoiy va iqtisodiy funksiyalarini belgilash bilan uzviy bog'liqdir (ta'lim, sog'liqni saqlash sohasiga ko'maklashish, odamlarning yaxshi turmush sharoitiga ega bo'lishi uchun sharoit yaratish va boshq). Demak, bu inson va davlatning o'zaro munosabatlaridagi ayni sohaning o'zi bo'lib, unda inson erkinligining ustuvorligi va davlat vazifalarining chegaralari qat'iy belgilab quyilgan.

Ko'rib chiqilayotgan masalada O'zbekistonning yangi konstitutsiyaviy huquqi o'ziga xos mavqega ega. Ilgari sovet konstitutsiyasidan farqli o'laroq, 1992 yilgi Konstitutsiyada irjtimoiy tuzum asoslari haqidagi bo'lim yo'q. Ammo, ayni paytda, ko'pgina moddalarda davlatning iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalari belgilangan. Ular boshqa maqsadga – inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilish va uni amalga oshirish uchun ko'maklashishga bo'ysundirilgan. Bu hol Konstitutsiyaning sotsial liberalizm va sotsial demokratiya g'oyalarining kuchli ta'siri ostida yaratilganligi bilan izohlanadi. Shunday qilib, Konstitutsiyaning tuzilishi va mazmunidan davlatga iqtisodiy va ijtimoiy xarakterdagi muayyan ko'rsatmalar kelib chiqadi.

Hozirgi o'tish davrida O'zbekistondagi fuqarolik jamiyati hali batamom qaror topgani yo'q, aholining erkinlik tashabbusi, butunlay o'zini o'zi boshqarishni tashkil etish malakasi yetishmaydi. Shu sababdan davlatning jamiyatdagi an'anaviy tartibga soluvchi roli saqlanib qolmoqda. Ammo vaqti kelib, agar islohotlar muvaffaqiyatli davom etsa va jamiyat chinakam fuqarolik jamiyatiga aylansa,

davlatning roli tobora pasayib boradi, ijtimoiy hayotning bir qator sohalarida huquqiy tartibga solish o'zini o'zi boshqarish va erkin kishilarning tashabbusiga o'z o'rnini bo'shatib beradi.

Davlat hokimiyatining tuzilishi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining ta'asis etilishinigina emas, balki ular orasidagi munosbatlarning keng doirasini tartibga solishni ham nazarga tutadi. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, garchi ularning vazifalari va vakolatlari o'rtasida tafovut bo'lsa-da, bir butun yaxlit tizimni tashkil etishi zarur. Konstitutsiyaviy huquq hokimiyat-huquq jarayonlari rivojida boshlang'ich nuqtani tashkil etadi. U barcha davlat organlarining hamjihatlik bilan, yagona maqsad yo'lida o'zaro hamkorligi uchun asos bo'lishi lozim. Ammo bu organlar ishida ichki birlik bo'lmasa, konstitutsiyaviy huquq ularning harakatlarida nomutanosibdikni keltirib chiqaradi, konstitutsiyaviy tenglik va davlat hayotida bo'shliqni yuzaga keltirishi mumkin.

Konstitutsiyaviy huquqning bunday tizimni tashkil etish funksiyasi undan qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatlari, shuningdek, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlari, vazifalari va maqomi miqyosini, ularni tashkil etish tartibi, vakolat doirasi, faoliyat shaklini aniq belgilab qo'yishni taqozo etadi.

1.4. Konstitutsiyaviy huquq va siyosiy tizim. Bu ikki tushuncha bir-biri bilan uzviy bog'liq. Davlat – siyosiy tizimning tarkibiy qismi bo'lib, unga siyosiy institutlar va muassasalar (partiyalar, siyosiy maqsadlarni ko'zda tutuvchi jamoat tashkilotlari, ta'sir o'tkazish guruhlar) ham kiradi. Davlat organlari siyosiy tizimning boshqa tuzilmalari bilan uzviy aloqada shakllanadi va faoliyat olib boradi. Chunki bu tizim jamiyatda hokimiyat (unga erishish, ushlab turish yoki foydalanish) bilan bog'liq siyosiy munosabatlarni ifoda etadi.

Konstitutsiyaviy huquq va siyosiy tizim bir narsa emas. Huquqiy munosabatlar siyosiy munosabatlarning faqat bir qismidir. Masalan, fuqarolik huquqi va erkinliklari instituti siyosiy tashkilotlarning faoliyati, ularning hokimiyat uchun kurashida hal qiluvchi sharoit yaratadi. Huquq hokimiyat mexanizmini o'rnatadi, asosiy siyosiy kuchlar ana shu doirada o'zlarini namoyon qiladilar.

Ammo konstitutsiyaviy huquq baribir u yoki bu mamlakatni kim va qanday boshqarayapti, degan savolga to'la javob bermaydi. Bu huquq normalari o'z-o'zicha ta'sir kuchiga ega emas, ular siyosiy voqelik bilan o'zaro munosabatga kirishgandagina jonlanadilar. Siyosiy munozaralarning ishtirokchilari ba'zan yillar davomida ayrim huquqiy normalarni eslamaydilar, ammo o'tkir siyosiy vaziyat yuzaga kelsa, unutilgan norma tomonlarning huquqqa zid usullarni qo'llashiga yo'l qo'ymaydi, haloskorlik vazifasini o'taydi. Tarixda siyosiy tuzum konstitutsiyaviy huquqni quruq rasmiyatchilikka aylantirib qo'ygan vaqtlar ko'p bo'lgan. Shu sababli, konstitutsiyaviy huquqni o'rganish siyosiy tizimning barcha murakkab jihatlarini, ya'ni siyosatshunoslik fanini o'rganish bilan to'ldirilishi zarur.

Konstitutsiyaviy huquqning muhim elementi – boshqaruv shaklidir. Garchi u siyosiy munosabatlar ishtirokchilari uchun ahamiyatga ega bo'lsa-da, baribir hokimiyatni amalga oshirishning aniq usullarini aks ettirmaydi. Mamlakatda demokratik davlatchilikning barcha atributlari bo'lishi mumkin: e'lon qilingan huquq va erkinliklar, parlament, prezident, mas'ul hukumat, ammo agar siyosiy tuzum qo'pol diktaturadan iborat bo'lsa, demokratik institutlar xo'ja ko'rsinga mavjud bo'ladi. Shunday qilib, boshqaruv shakli, xoh u parlament respublikasi yoki parlamentar monarxiya bo'lsin, xoh prezident respublikasi yoki konstitutsiyaviy monarxiya bo'lsin, o'z-o'zicha ko'p yoki oz demokratiyadan darak bermaydi.

Xuddi shu tariqa ko'ppartiyaviylik, siyosiy madaniyat an'analari va hokazolar asosiga qurilgan siyosiy tizim hech narsadan guvohlik bermaydi. Amalda u mavjud diktaturaga xizmat qilishi mumkin. Faqatgina bir partiyali siyosiy tizim hamisha va shubhasiz antidemokratikdir.

Siyosiy tuzumning uch asosiy turi ma'lum: demokratik, avtoritar va totalitar.

Demokratik tuzum konstitutsiyaviy qonunchilikka rioya qilinishi, barcha fuqarolarning o'z huquq va erkinliklaridan to'la foydalanish imkoniyati mavjudligi, ko'ppartiyaviylik, erkin matbuot, mustaqil sud tizimi va boshqalar bilan xarakterlanadi.

Avtoritar tuzum davlat qarorlarini qabul qilish konstitutsiyaviy mexanizmni oligarxiyaga bo'ysundiradi, hokimiyatni amalda diktator qo'lida markazlashtiradi, ijroiya hokimiyatni kengaytirib, uni nazoratsiz va hech kimga hisob bermaydigan qilib qo'yadi. Bu tuzumda aholining barcha qatlamlari xatti-harakatlari ustidan nazorat o'rnatiladi, fuqarolik huquqlari va erkinliklari yo'qqa chiqariladi. Bunday holatda konstitutsiyaviy tartib cheklanmagan, favqulodda yoki harbiy vaziyat bilan almashadi, tuzum qurolli kuchlarga suyanadi.

Totalitar tuzum qo'pol repressiyalar, fikr ustidan nazorat o'rnatish, muxolifat va erkin matbuotni batamom yo'q qilish bilan xarakterlanadi. Hokimiyatning o'ta markazlashuvi dohiychilikni tug'diradi, parlament muassasalari va mustaqil sudlarning amalda yo'q qilinishiga olib keladi. Konstitutsiyaviy huquq bunday tuzumda bir partiyaning diktaturasini qonunlashtiradi.

Siyosiy tuzumlar yuqorida ta'kidlangan uch asosiy tur bilan cheklanmaydi. Boshqa ko'pgina oraliq tuzumlar ham mavjud.

Tayanch tushunchalar: absolyut, metodologiya, siyosiy rejim, huquq.

Nazorat savollari.

1. Konstitutsiyani o'rganish qachondan boshlab joriy qilindi?
2. Konstitutsiyani organish o'quv kursining vazifasi, maqsadlari nimalardan iborat?
3. Konstitutsiyani o'rganish kursi - konstitutsiyaviy huquqning asosiy qismiga nimalar kiradi?
4. Siyosiy tizim deganda nimani tushinasiz.
5. Konstitutsiyani o'rganishdan ko'zlangan maqsad nima?
6. O'zbekiston Konstitutsiyasini o'rganish o'quv kursi bilan Konstitutsiyaviy huquq fanining qanday farqi bor?
7. Konstitutsiyaviy huquqning turli siyosiy (demokratik, avtoritar, totalitar) tuzumlarda qanday amal qilishini tushuntirib bering?

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 5, 12, 14, 22, 24, 25.

2-ma'ruza. O'zbekistonning 1992 yilgi Konstitutsiyasining vujudga kelishi.

Reja

- 2.1.O'zbekistonning konstitutsiyaviy tarixi.
- 2.2.O'zbekiston Respublikasining mustaqil, suveren davlat deb e'lon qilinishi va yangi Konstitutsiyani qabul qilishning zarurligi.
- 2.3.O'zbekistonda konstitutsiyaviy islohotlarning xususiyatlari va asosiy bosqichlari.
- 2.4. Konstitutsiyaning tuzilishi va unga o'zgartirish kiritish tartibi.

2.1. O'zbekistonning konstitutsiyaviy tarixi. Har bir davlatning boshqaruv tizimi davlatchiligi tarixida u amal qilib yashaydigan huquqiy manbasi bo'ladi. Bunday huquqiy manbalar turli davlatlarda turlicha nomlar bilan yuritilib kelingan. Boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi hozirgi O'zbekistonning davlatchiligi tarixida ham u amal qilib yashagan huquqiy hujjatlar, ya'ni siyosiy tuzum mohiyatini belgilovchi asosiy me'yoriy hujjatlar bo'lgan. Masalan, tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, VIII asrdan boshlab Movarounnahrda shariat bilan bir qatorda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi Qonun tariqasida Qur'oni Karim amalda bo'lgan. Keyingi – XIII-XIX asrlarda Movarounnahrda shariat bilan bir qatorda davlatning huquqiy ahvoliga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatib kelgan Amir Temur tuzuklari konstitutsiyaviy hujjatlar rolini bajarib kelgan.

O'zbekiston tarixida 1992-yilgi qonstitutsiyaga qadar bir nechta Konstitutsiyalar qabul qilingan, biroq ular mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyalari bo'lmagan. Yaqin tariximizdan ma'lumki, O'zbekiston SSR tashkil etilgunga qadar mamlakaimiz hududida RSFSR tarkibidagi Turkiston ASSR va Xorazm hamda Buxoro Sovet Respublikalari kabi mustamlaka davlatlar bo'lgan. Sovetlar hukmronligiga asoslangan bu davlatlarda qabul qilingan Konstitutsiyalarni go'yoki mustaqillik belgisi sifatida ko'rsatilar edi. Aslida esa bu Konstitutsiyalar RSFSR, keyinchalik SSSR Konstitutsiyalaridan bir ko'chirma edi xolos. 1918-yil 15-oktabrda sovetlar

hokimiyatini Turkiston hududida amalga oshirishni belgilab beruvchi Turkiston ASSRning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Unga 1918-yil 10-iyunda qabul qilingan RSFSR Konstitutsiyasi asos qilib olingan edi. Konstitutsiyaga ko'ra Turkiston ASSR RSFSRning tarkibiy qismi hisoblanar edi.

Xorazm Sovet Respublikasida Konstitutsiya 1920-yilda qabul qilindi. Unga ko'ra Xorazm Sovet Respublikasi hududida ishlab chiqarish vositalari Sovet hokimiyati o'rnatilgunga qadar kimga tegishli bo'lgan bo'lsa, xususiy mulkchiligicha qoldirildi va yerga shaxsiy egalik qilish, uni sotish, har kim o'z boylıklaridan erkin foydalanish huquqlari e'lon qilindi. Bunday tartib o'rnatilishi vaqtincha hol edi.

1923-yil 20-oktabrda IY Butunxorazm Sovetlarining s'ezdida yangi Konstitutsiya qabul qilindi. Bu Konstitutsiya ham oldingilaridan kam farq qilib, sovetlarning O'rta Osiyodagi hokimiyatini mustahkamlashga xizmat qildi. Konstitutsiyaga binoan boylar, dalollar, ruhoniylar va boshqa ayrim mulkdorlar saylash va saylanish huquqidan mahrum etilgan edi.

O'rta Osiyoda yana bir davlat Buxoro amirligida ham 1920-yil sentabrda sovet hokimiyati o'rnatilib, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil etildi. 1921-yil 23-sentabrda II Butunbuxoro Sovetlarining s'ezdi o'tkazilib, unda RSFSR Konstitutsiyasiga mos ravishda BXSR Konstitutsiyasi qabul qilindi. Bu Konstitutsiya Buxoroda bolsheviklar hukmronligidagi Sovet hokimiyatini mustahkamladi.

1924-yilda Lenin tomonidan ishlab chiqilgan reja asosida O'rta Osiyoda milliy-davlat chegaralanishi o'tkazildi. Natijada Turkiston ASSR, BXSR va XXSRlari o'rnida O'zbekiston va Turkmaniston SSR, Tojikiston ASSR, Qirg'iziston va Qoraqalpog'iston avtonom viloyatlari tashkil etildi. Shundan so'ng 1924-yil 31-yanvarda qabul qilingan SSSR Konstitutsiyasi asosida uning tarkibidagi respublikalar o'z Konstitutsiyalarini qabul qilishdi.

1927-yil 30-martda O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi qabul qilinib uning tarkibiga Tojikiston Avtonom Respublikasi kiritildi. Konstitutsiyada xotin-qizlar tengligi, fuqarolar teng huquqliligi, matbuot erkinligi, ommaviy yig'ilishlar

o'tkazish, ko'chalarda namoyishlar o'tkazish huquqlari ko'rsatilib, bu huquqlar faqat qog'ozda edi, xolos. Amalda esa hech qanday kafolatlar belgilanmagan edi.

1936-yil 5-dekabrda qabul qilingan SSSR Konstitutsiyasiga muvofiq 1937-yilda O'zbekiston SSRning Konstitutsiyasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra davlat boshqaruvini amalga oshirish shakllari, joylarda Sovetlarni tashkil etish tartibi, ularning vakolat muddatlari, saylash va saylanish tartiblarining ayrim holatlari oldingi Konstitutsiyaga nisbatan qisman o'zgartirildi. Oliy Sovet va boshqaruv organi Ministrlar Sovetining vakolatlari, tashkil etilish tartibi ko'rsatib berildi va ma'muriy-hududiy tuzilishi, prokuratura, sud tuzilishi belgilab berildi.

1977-yil 7-oktabrda SSSR rivojlangan sotsializm bosqichi Konstitutsiyasi qabul qilindi. 1978-yil 19-aprelda esa shunga mos ravishda O'zbekiston SSRning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Ko'rinib turibdiki, sobiq sho'rolar davrida konstitutsiyalar tez-tez o'zgartirilib turar edi, ular barqaror emas edi. «Konstitutsiyada O'zbekiston SSSR tarkibiga federatsiya sifatida kiradi deb belgilanib, ammo amalda bu federatsiya boshqarishning bir butun ma'muriy-buyruqbozlik tizimini o'zida gavdalantirar edi. Kadrlar markazdan turib tayinlanar edi, qayerda va nima ko'rishni markaz hal qilardi, qanday mahsulotni va qancha hajmda chetdan olib kelish hamda chetga chiqarishni markaz belgilab berardi. Konstitutsiya ana shunday idora usulini belgilar va mustahkamlar edi va u boshqarishning totalitar-avtoritar tizimiga moslashtirilgan edi».

Kommunistik partiya hukmronlik qilgan davrda Sovet xalqining huquqiy va madaniy hayotidagi rivojlanishni o'rganishda shunga etiborni qaratish lozimki, partiya va Sovet hokimiyatining zo'ravonlikka asoslangan milliy siyosati tufayli sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan respublikalar yanada markazga qaram davlatga aylantirilgan edi. Bunday siyosatning natijasi o'laroq kam sonli xalqlarning huquqiy holatida hech qanday o'zgarishlar va siljishlar bo'lmadi. Konstitutsiya va qonunlar tez-tez o'zgartirildi. Bu esa muammolarni yechish o'rniga ularning ko'payishiga olib keldi, ittifoqchi respublikalardagi norozilik kayfiyatining kuchayib borishiga sharoit tug'dirdi. Sobiq sho'rolar tuzumining inqiroziga olib kelgan sabablardan biri ham shunda edi.

2.2. O'zbekiston Respublikasining mustaqil, suveren davlat deb e'lon qilinishi va yangi konstitutsiyani qabul qilishning zarurligi.

XX asrning 90-yillariga kelib sotsialistik mamlakatlarda inson huquqlarni himoya qilish va ozodlikka intilishning yangi bosqichi boshlandi. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida qariyb yarim asr hukm surgan totalitar davlat tuzumi inqirozga yuz tutib, demokratik tartiblar qaror topa boshladi. Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasi parchalanib, uning o'rnida bir nechta mustaqil davlat, Chexoslovakiya Sotsialistik Respublikasi o'rnida suveren Chexiya va Slovakiya davlatlari vujudga keldi. Germaniya Federativ Respublikasi va Germaniya Demokratik Respublikasi birlashib nemislar yashaydigan ulkan hududda sotsialistik tuzum barham topdi. Ayni chog'da sobiq SSSR parchalanib uning o'rnida mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan 15 ta mustaqil davlat tashkil topdi.

Boshqacha aytganda, bu davrga kelib dunyoning ko'pgina mamlakatlarida mustaqillikka erishish harakati qizg'in avj olgan jarayonga aylandi. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi ana shu olamshumul jarayon ichida kechdi.

90-yillarning boshlariga kelib O'zbekistonda xalqimizning mustaqillikka erishishdek azaliy orzusini amalga oshirish kun tartibidagi bosh masala bo'lib qoldi. O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishida 1990 yil 24 martda sobiq Ittifoq respublikalari ichida birinchilardan bo'lib Prezidentlik boshqaruviga o'tilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi mustaqilliuk g'oyalarining amalga oshishi uchun shart-sharoit yaratib berdi. 1990 yil 20 iyunda Oliy Kengashning ikkinchi sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida Deklaratsiya» qabul qilindi. Bu tarixiy hujjatning ahamiyati shundaki, u o'zbek davlatchiligi tarixida birinchi tinch yo'l bilan o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi qo'lga kiritish to'g'risidagi ho'jjat edi. Bu hujjatga ko'ra, o'zbek xalqining davlat boshqaruvida har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini va farovon hayot kechirishini ta'minlashni oliy maqsad deb o'z zimmasiga olgan holda, xalqaro huquq qoidalariga asoslanib o'zining davlat mustaqilligi to'g'risidagi

Deklaratsiyasini e'lon qildi. Va bundan buyon O'zbekiston o'zining tashqi munosabatlarida, davlat hokimiyati masalalarini hal etishda tanho hokimligini, uning chegaralari va hududi daxlsiz ekanligi, o'z taraqqiyot yo'lini, o'z nomini, davlat ramzlari (gerb, bayroq, madhiya)ni o'zi ta'asis etishi va demokratik huquqiy davlat tashkil topganligini butun dunyoga ma'lum qildi. O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy yangilanish istiqbollarini belgilab berar edi. Batamom mustaqillikni qo'lga kiritish uchun ma'lum vaqt talab qilinar edi. Chunki sobiq Ittifoq markazida bunga qarshi katta kuchlar tayyor turar edi.

Davlat va jamiyat hayotidagi muammolarni tezkorlik bilan hal etish kechiktirib bo'lmas ahamiyatga ega edi. Chunki bu davrda SSSRning taqdiri hal bo'layotgan edi. Markaz rahbarlari har xil siyosiy nayranglar bilan parchalanib borayotgan ittifoqni saqlab qolishga urinayotgan edi. Shunday nayranglardan biri 1991-yil 19-21-avgustdagi Moskvada davlat to'ntarishi qilishga urinish bo'ldi. Bundan ko'zlangan maqsad Ittifoq hududida yashovchi xalqlarning mustaqillikni qo'lga kiritishlariga, o'z taqdirini o'zlari hal qilishlariga yo'l qo'ymaslik edi. Butun mamlakat uchun fojiali bo'lgan bunday damlarda O'zbekiston rahbariyati barchani matonat va osoyishtalikka da'vat qildi. Ular ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlash, respublika hududida favqulodda holat joriy etilishiga yo'l qo'ymaslik, Konstitutsiyaga qarshi davlat to'ntarishini qo'llab-quvvatlamaslikka chaqirdilar. Shunday bir qaltis vaziyatda 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi o'n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasi chaqirildi. Sessiyada Oliy Kengash deputatlari moddama-modda muhokamadan so'ng O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi qonunni qabul qildilar. So'ngra Respublikaning davlat mustaqilligi to'g'risidagi Bayonoti qabul qilindi. O'zbekiston SSRning nomi O'zbekiston Respublikasi deb o'zgartirildi. «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi qonun» O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishganligini uzil-kesil mustahkamladi. Unda jumladan, O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga, mustaqil demokratik davlatdir deyiladi.

Ushbu qonunda O'zbekiston Respublikasi xalqining suverenligi, davlat hokimiyati uning xohish-irodasiga muvofiq vakillik organlari tizimi orqali amalga oshirilishi, hududi va chegaralari daxlsiz va bo'linmasligi, u O'zbekiston xalqining roziligsiz o'zgartirilishi mumkin emasligi prinsiplari mustahkamlandi. Shuningdek, davlat hokimiyati idoralirining tizimi, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo'linish tartibiga asoslanishi belgilab berildi. Uning hududidagi barcha moddiy va ma'naviy boyliklar umummilliy boylik ekanligi, ishlab chiqarish vositalari va boshqa noishlab chiqarish fondlari, transport, aloqa va energetika tizimlari respublika mulkidir, deb mustahkamlandi. Bozor munosabatlarini rivojlantirishda mulk shakllari bundan buyon to'liq takomillashtirilishi va buning tegishli qonunlar asosida kafolatlanishi belgilab qo'yildi. Xorijiy davlatlar bilan diplomatik, konsullik, savdo aloqalari, muxtor vakillar bilan ayirboshlash, xalqaro shartnomalar tuzish, xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish uning ajralmas huquqidir, deb ko'rsatildi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni rivojlantirish va tartibga solishda inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasiga muvofiq inson qadr-qimati ulug'lanishini doimo nazarda tutishini, o'z taraqqiyot yo'lini, o'z davlat ramzlari va davlat tilini o'zi belgilaydi, deb e'lon qildi.

O'zbekistonning 1992-yilgi Konstitutsiyasining qabul qilinishiga sabab bo'lgan ikkita omilni alohida qayd etish zarur. Ulardan biri O'zbekistonning bozor munosabatlari tomon to'tgan yo'li, yangi taraqqiyotdagi umumiy qonuniyatlar va yo'nalishlarga muvofiq ravishda respublikaning jahon hamjamiyatiga kirib borishi bo'lsa, ikkinchisi esa O'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi bo'ldi.

O'zbekistonning qabul qilinajak yangi Konstitutsiyasi o'zbek xalqi erishgan huquq va erkinliklarini, davlat hokimiyatini tashkil etishda o'z xohish-irodasini qonuniy tartibda rasmiylashtirishi, respublikada yashovchi xalqlarning yangicha yashashga va o'z davlat tuzumini barpo qilishga bo'lgan intilishlari va ularning huquq va erkinliklarini rivojlantirishning eng muhim kafolati ekanligi Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilishi, mustaqillikning dastlabki yillaridayoq yangidan tarkib topgan demokratik ijtimoiy va davlat tuzumining asoslari, oliy va

mahalliy davlat hokimiyati organlarining tizimi, ular faoliyatidagi demokratik prinsiplar qonunlashtirilishi lozim edi. Shu tariqa, mustaqil O'zbekistonning davlat tuzumi asoslarini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, davlat hokimiyati organlarining tashkil etilishi hamda faoliyati prinsiplarini belgilab beradigan Konstitutsiya qabul qilish zaruriyati paydo bo'ldi.

2.3. O'zbekistonda konstitutsiyaviy islohotlarning xususiyatlari va bosqichlari. O'zbekiston mustaqillikka erishgan davrda respublikada 1978-yilda qabul qilingan Konstitutsiya amalda edi. Biroq bu Konstitutsiya O'zbekistonning mustaqil davlat sifatidagi maqomiga, shaxs bilan davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga, xalqaro huquqning talab va me'yorlariga javob bermay qo'ygan edi. Chunki u jahon konstitutsiyaviy amaliyotida e'tirof etilgan va Konstitutsiyaga qo'yiladigan talablarga javob bermas edi. U o'zining o'ta mafkuralashtirilganligi, balandparvoz siyosiy chaqiriq va iboralar bilan to'lib-toshganligi bilan ham jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlari va istiqloq talablarini o'zida aks ettirmas edi. Shuning uchun ham Oliy Kengashning 1990 yil 20 iyunidagi ikkinchi sessiyasida yangi Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo'yicha Konstitutsiyaviy komissiya tuzilgan edi.

Yangi Konstitutsiya loyihasini tayyorlash faol amaliy konstitutsiyaviy islohotlar jarayoni bilan uzviy bog'liqlikda olib borildi. Ma'lumki, 1990-1992-yillarda O'zbekistonning 1978-yilgi Konstitutsiyasiga 100 dan ortiq o'ta muhim o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan edi. Ular jumlasiga, birinchidan, *siyosiy sohada* - prezidentlik boshqaruvi va yuqoridan to quyigacha tubdan yangi ijro etish hokimiyati tizimini ta'sis etish, konstitutsiyaviy nazoratni joriy qilish, saylov tizimi va sudlarni saylashdagi o'zgartirishlar, bir partiyalilikdan ko'ppartiyaviylikka o'tishga qaratilgan qo'shimchalar kiradi.

Ikkinchidan, *iqtisodiy sohada* – yangi jamiyatning iqtisodiy asoslarini davlat va kolxoz-kooperativ mulkchiligi emas, balki bozor munosabatlari sari yo'naltirilgan turli mulkchilik shakllari va ularning huquqiy tengligi tashkil etishi haqidagi konstitutsiyaviy qoida o'rnatildi.

Uchinchidan, *ma'naviyat sohasida* – yagona hukmron marksizm mafkurasidan va faqat sinfiylikka asoslanishdan voz kechib, umuminsoniy qadriyatlarga tayanib, fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi va boshqa shaxsiy huquqlarning qonuniy amaliy e'tirof etilishidir.

Bu sohalarda 1990-1991-yillarda joriy qilingan qator yangi konstitutsiyaviy qoidalar yangi Konstitutsiyaning loyihasiga kiritildi. Jamiyat siyosiy va huquqiy tizimini tubdan o'zgartirishning muhim tarkibiy qismi bo'lgan Konstitutsiyaviy islohotlar bir qator xususiyatlarga ega. Ulardan ayrimlarini keltirib o'tamiz:

1. Agar ilgari qonunchilikni o'zgartirish odatda yangi Konstitutsiyani qabul qilishdan boshlanib, keyin tarmoq joriy qonunlarini o'z ichiga olgan bo'lsa, endilikda u butunlay boshqacha tarzda amalga oshirildi. Konstitutsiya va amal qilayotgan qonunlarga kiritilayotgan tuzatishlar bilan qo'shimchalar o'rtasida ilgariydek bog'liqlik yo'q. Shu jihatdan olib qaralganda Konstitutsiyaning qabul qilinishi butun huquqiy islohotlarning eng yuqori nuqtasi bo'lib hisoblanadi.

2. Agar ilgari ikki Konstitutsiya islohotlari davrida (1936-1937 va 1977-1978-yillar) respublikaning Konstitutsiyasini biron-bir jiddiy muqobil yechimni istisno etgan holda SSSR Konstitutsiyasiga muvofiqlashtirish ularning asosiy mazmunini tashkil etgan bo'lsa, endilikda bu prinsip hech qanday ahamiyatga ega bo'lmadi. Chunki O'zbekiston mustaqil davlat sifatida o'zining Konstitutsiyasini o'zi ishlab chiqdi. Bunda mezon bo'lib, milliy huquqiy meros, xalqaro huquq me'yorlari va umumbashariy qadriyatlar xizmat qildi.

3. Respublikadagi bir qator konstitutsiyaviy o'zgarishlar sobiq Ittifoqdagi o'zgarishlardan ham oldin amalga oshirildi. Masalan, prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi, Ministrlar Soveti o'rniga Vazirlar Mahkamasi birinchi bo'lib O'zbekistonda ta'xis etilib, ijro etuvchi hokimiyat tizimi bevosita respublika Prezidentiga bo'ysundirildi. Keyinchalik sobiq Ittifoqda ham, bir qator respublikalarda ham bizning konstitutsiyaviy tajribamiz hisobga olindi va e'tirof etildi.

4. Konstitutsiyaviy yo'l bilan tartibga solish ko'lamining kengayishi jarayoni ko'zga tashlandi. Bunga o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishini Konstitutsiya

yo'li bilan mustahkamlash, Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi (keyinchalik Konstitutsiyaviy sud)ni ta'asis etish, O'zbekiston Oliy Kengashi tomonidan respublika prokurorining tayinlanishi va boshqalar misol bo'ladi.

Bu barcha sanab o'tilgan konstitutsiyaviy o'zgartirishlar O'zbekiston hali sobiq Ittifoq tarkibida ekanligida amalga oshirildi. Ularning barchasi konstitutsiyaviy islohotlarning birinchi bosqichini tashkil etadi.

Konstitutsiyaviy islohotlarning ikkinchi bosqichi 1991-yil 31-avgustdan to 1992-yil 8- dekabrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu bosqichning o'ziga xos xususiyati «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonun bilan belgilanadi. Bu 17 moddadan iborat qonun hujjati O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida qo'ygan ilk qadamining konstitutsiyaviy-huquqiy asosini tashkil etdi. Shuning uchun ham ushbu qonunga Oliy Kengashning 1991-yil 30-sentabrdagi qarori bilan Konstitutsiyaviy qonun maqomi berildi va yangi Konstitutsiya qabul qilingunga qadar Muvaqqat Konstitutsiya vazifasini bajardi.

Shu bosqich maboynida Konstitutsiya loyihasi tayyorlanib, unda konstitutsiyaviy rivojlanishning jahon tajribasi, boshqa mamlakatlarning inson huquqlari borasida, demokratiya va qonunchilik sohasidagi qo'lga kiritgan yutuqlari o'rganib chiqilib hisobga olindi. Shu maqsadda AQSh, Fransiya, Kanada, Germaniya, Shvetsiya, Yaponiya, Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya, Turkiya, Eron, Hindiston, Pokiston, Misr, Vengriya, Bolgariya, Litva davlatlarining konstitutsiyalari chuqur o'rganib chiqilib, qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, MDH davlatlaridan Rossiya Federatsiyasi, Belarus, Ukraina, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkmaniston respublikalarini konstitutsiyalari ham o'rganib chiqildi.

Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, o'zbek xalqi ajdodlarining davlatchilikni mustahkamlash yo'lidagi g'oya va fikrlari ham bo'lajak Asosiy Qonunga asos qilib olindi. Jumladan, Amir Temurning «Temur tuzuklari»dagi davlatni idora qilishga doir qoidalari e'tiborga olindi.

Xususan, Amir Temur umrining oxirida farzandlariga shunday vasiyat qilgan: «millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaiflarni qo'ring,

yo'qsullarni boylar zulmiga tashlamang, adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz o'lsun ...». Bu fikrlar o'sha davrda davlat yuritishning asosi bo'lib xizmat qilgan. Turonzamin hoqoni uchun asosiy g'oya hisoblangan adolat va ozodlik bugungi kunda ijtimoiy adolatni himoya qilishda asosiy mezon hisoblanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasi puxta ishlovdan keyin 1992-yil 26- sentabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Loyiha barcha ommaviy axborot vositalarida, mehnat jamoalarida, faollar yig'ilishlarida keng muhokama qilindi. Umumxalq muhokamasi davrida loyihani yaxshilashga doir ko'plab taklif va mulohazalar bildirildi. Konstitutsiya komissiyasining o'zigagina 6 mingdan ortiq taklif va mulohaza tushdi.

Tushgan taklif va mulohazalarning hammasi atroflicha puxta o'rganildi hamda loyiha ustida ishlash jarayonida ulardan foydalanildi. Shuning natijasida Konstitutsiya loyihasining 60 dan ortiq moddasiga aniqlik va tuzatishlar kiritildi. Loyihadagi 127 moddadan 60 tasiga tuzatish va aniqliklar kiritildi. Dastlabki variantdan to'rtta modda chiqarib tashlandi, bir nechta yangi modda loyiha matniga qo'shimcha ravishda kiritildi. Tushgan taklif va mulohazalarni inobatga olgan holda Konstitutsiya loyihasi 1992-yil 21-noyabrda muhokamani davom ettirish uchun yana ikkinchi bor matbuotda e'lon qilindi.

Shunday qilib, ikki yil tayyorgarlik, ikki yarim oy umumxalq muhokamasidan so'ng Konstitutsiya loyihasi 1992-yil 8-dekabrda XII chaqiriq Oliy Kengashning o'n birinchi sessiyasi tasdig'iga havola qilindi.

O'zbekiston Konstitutsiyasi oliy darajadagi qonun sifatida davlatimizning qiyofasini, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tuzumini, boshqaruvning demokratik prinsiplarini, jamiyat rivojlanishining strategik yo'nalishlarini, fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlanganligini, hamda ma'naviy qadriyatlarimiz asoslarini mustahkamlab berdi.

Sessiya ishtirokchilari yakdillik bilan 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat Konstitutsiyani qabul qildilar.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasining tarixida birinchi marta xalqaro huquqning hamma tomonidan e'tirof etilgan prinsiplari va me'yorlariga,

umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga asoslangan real, tub ma'nodagi Konstitutsiya yaratildi va kuchga kiritildi. Bu Konstitutsiya 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan «Mustaqillik Deklaratsiyasi» va 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida»gi qonunda mustahkamlangan prinsiplar va g'oyalarni o'zida to'la mujassamlantirdi. Konstitutsiya loyihasi ishlab chiqilishi jarayonida ishchi guruhi BMTning xalqaro huquqiy hujjatlariga, ayniqsa 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan «Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi»ga, «Fuqarolik huquqlari va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Pakt»ga (1966-yil), Xelsinkida imzolangan Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining (YeXHT, 1975-yil) yakunlovchi hujjatiga asoslanganligi muhim ahamiyatga egadir.

Faqat milliy istiqlol, davlat mustaqilligiga erishish tufayli O'zbekiston Respublikasining tamomila yangi, inson manfaatlarini, haq-huquqini himoya qiluvchi chinakam demokratik Konstitutsiyani yaratishdek ulkan imkoniyat vujudga keldi. O'zbekiston Respublikasi XII chaqiriq Oliy Kengashining 1992-yil 8-dekabrda o'n birinchi sessiyasi tomonidan O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakatimiz tarixida olamshumul tarixiy voqea bo'ldi.

2.4. Konstitutsiyaning tuzilishi va unga o'zgartirish kiritish tartibi.

O'zbekiston Konstitutsiyasi muqaddimadan va 128 moddani o'z ichiga olgan 26 bob va 6 bo'limdan iborat. Konstitutsiyaning Muqaddimasida xalqning demokratiya g'oyalariga, inson huquqlari va ijtimoiy adolatga sadoqatli ekanligi rasman e'lon qilinadi. «O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi», - deb bayon etilgan Konstitutsiyaning 13-moddasida.

Konstitutsiyaning butun mazmuniga inson – jamiyat – davlat g'oyasi singdirilgan. Birinchi bo'lim Konstitutsiyaning asosiy prinsiplariga bag'ishlangan. Bunday prinsiplarga davlat, millat, xalq suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi va uni

amalga oshirish, hokimiyatning taqsimlanishi, Konstitutsiya va qonunning ustunligi, O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy prinsiplari kiradi.

Ikkinchi bo'lim inson va fuqarolarning asosiy huquqlari va burchlariga bag'ishlangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qudratli axloqiy kuchga egadir. Unda avvalo insonparvarlik, adolat g'oyalari mustahkamlangan. Konstitutsiyaning insonga qaratilganligi xususiyatini alohida ajratib ko'rsatish lozim. Konstitutsiya maqsadining cho'qqisida inson, fuqaro, uning huquqlari va qonuniy manfaatlari turadi. Konstitutsiyada inson, uning hayoti, erki, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa ajralmas huquq hamda erkinliklari muqaddas sanalib, ular davlat tomonidan kafolatlanishi belgilab qo'yilgan.

Konstitutsiyaning «Jamiyat va shaxs» deb nomlangan uchinchi bobida jamiyatning iqtisodiy negizlarini tashkil etuvchi mulkchilikning xilma-xil shakllarining huquqiy kafolatlari, fuqarolik jamiyatining an'analarini tiklash, ijtimoiy uyushmalar va ular o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish, ularni yanada rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan huquqiy asoslar, oilaning jamiyat hayotida to'tgan o'rni, ota-onalar va farzandlarning huquq va majburiyatlari, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotini demokratlashtirishdagi o'rni belgilab berilgandir.

Konstitutsiyaning to'rtinchi bo'limi O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishiga bag'ishlangan. O'zbekiston o'zining davlat tuzilishiga ko'ra unitar davlat bo'lib, bir markazdan boshqariladigan viloyatlar, tumanlar, shaharlar va shaharchalar (posyolkalar)dan iborat ma'muriy-hududiy tuzilishiga ega. Respublika tarkibiga Qoraqalpog'iston Respublikasi ham kiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasining suveren Respublika sifatidagi maqomi Konstitutsiyaning 17-bobida belgilab berilgan.

Beshinchi bo'lim davlat hokimiyati organlarining tashkil etilishiga bag'ishlangan bo'lib, unda markaziy davlat idoralari – Oliy Majlisning, Prezident, Vazirlar Mahkamasi, Konstitutsiyaviy, Oliy va Xo'jalik sudlarining, Respublika Prokuratura idoralarining, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlarining konstitutsiyaviy maqomi belgilab berilgan. Saylov tizimining prinsiplari, moliya va

kredit, xavfsizlik va mudofaa masalalarining konstitutsiyaviy yechimi ham shu bo'limda o'z aksini topgan.

Oxirgi oltinchi bo'limda Konstitutsiyaning barqarorligini va uzoq muddat amal qilishini ta'minlash maqsadida Konstitutsiyaga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilgan.

Shunday qilib, suveren O'zbekistonning Konstitutsiyasi inson va fuqaro huquqlarining demokratik hujjati, insonparvar, huquqiy davlatni shakllantirishning strategik dasturidir. U ulkan siyosiy, yuridik va xalqaro ahamiyatga ega hujjatdir.

Bugungi kunda Konstitutsiya jamiyatimizga xalq manfaatlarini yo'lida islohotlarni davom ettirish uchun shart-sharoit yaratishga huquqiy asoslar yaratdi. U inson huquqlarini, barqarorlikni va har bir oilaning munosib hayot kechirishini, O'zbekistonning barcha fuqarolariga ishonchli istiqbolni belgilab bermoqda.

Tayanch tushunchalar: konstitutsiyaviy tuzum, suveren, konsepsiya, qonun, demokratiya.

Nazorat savollari.

1. O'zbekiston Respublikasi qanday qilib mustaqillikka erishdi?
2. Nima sababdan O'zbekiston respublikasining yangi Konstitutsiyasini qabul qilish zaruriyati tug'ildi?
3. O'zbekiston Konstitutsiyasining loyihasi qanday tayyorlandi?
4. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasida avvalgisiga nisbatan qanday yangiliklar mavjud?
5. Mustaqil O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasining tashabbuskori va ijodkori kim?

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 5, 9, 10, 13, 14, 17, 22, 24, 25.

Uchinchi ma'ruza. Konstitutsiyaning davlat va jamiyat hayotida to'rtgan o'rni va ahamiyati.

Reja.

- 3.1. Konstitutsiya - davlatning Asosiy Qonuni.
- 3.2. Konstitutsiya barqarorlik manbai va uning yuridik xususiyati.
- 3.3. Konstitutsiyaning davlat va jamiyat hayotidagi o'rni. Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar tushunchasi, sub'ektlari.
- 3.4. O'zbekiston Konstitutsiyasining sobiq sho'ro tuzumi Konstitutsiyalaridan farqi va o'ziga xos jihatlari.

3.1. Konstitutsiya - davlatning Asosiy Qonuni. O'zbekiston Respublikasi XII chaqiriq Oliy Kengashining XI sessiyasida 1992-yil 8-dekabrda moddama-modda ovoz berish yo'li bilan mustaqil O'zbekiston davlatining Asosiy Qonuni - Konstitutsiyasini qabul qildi. Bu respublika hayotida muhim voqea bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi birinchilardan bo'lib o'zining Konstitutsiyasini qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov bu Konstitutsiya to'g'risida quyidagilarni ta'kidlagan edi: "Konstitutsiya davlatni davlat, millatni-millat sifatida dunyoga tanitadigan Kobusnomadir. Tarixda sinalgan umumbashariy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan hujjatdir".

O'zbekiston Konstitutsiyasi o'zbek xalqining davlat suvereniteti g'oyalari va inson huquqlariga hamda ozodligiga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatni anglagan holda o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib qabul qilingandir.

Bu - O'zbekiston xalqi demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib, xalqaro huquqiy mezonlarni e'tirof etib, uning ustunligini tan olgan holda Respublika fuqarolarini munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib qabul qilingan Konstitutsiyadir.

Konstitutsiya bu monumental asar, u barcha Qonunlarning, huquqiy tizimning o'zagidir. U xalq manfaatini ifoda qiladi, xalq hokimiyatchiligini ta'minlaydi.

O'zbekiston Konstitutsiyasi xalqning o'zini o'zi boshqarish, erkinlik va ijtimoiy adolat, insonparvar demokratik davlat barpo etish to'g'risidagi azaliy orzusini ifodalab berdi.

O'zbekiston Respublikasining dunyoga kelishiga asosan ikkita omil sabab bo'ldi. Shulardan biri jamiyatning bozor munosabatlari tomon to'tgan yo'li, ya'ni taraqqiyotidagi umumiy qonuniyatlar va yo'nalishlarga muvofiq ravishda O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi bo'ldi.

O'zbekistonda davlat mustaqilligi e'lon qilinganligi O'zbekiston Respublikasini Konstitutsiyasini ishlab chiqish va qabul qilishni taqozo etgan ikkinchi omil bo'ldi.

Konstitutsiyaning qaysi bir moddasini olib qaramang, har birida demokratiya, xalq hokimiyatchiligi, inson huquqlari g'oyalari ko'zga tashlandi.

Konstitutsiyani yana bir afzal tomoni shundaki, unda birinchi bor O'zbekistonda qiyofasi, xususiyatlari, an'analari o'z aksini topgan.

O'zbekiston mustaqil davlatchiligining mustahkam huquqiy asosi bo'lib - respublika Konstitutsiyasi xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi konstitutsiyasi qabul qilingandan buyon o'tgan yillarning eng muhim natijasi xalqimizning tanlagan yo'li to'g'riligiga, o'z mamlakatining buyuk kelajagiga ishonchi ortib borayotganligidadir.

3.2. Konstitutsiya barqarorlik manbai va uning yuridik xususiyati.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Asosiy Qonun hisoblanib, u eng Oliy yuridik kuchga egadir. Konstitutsiya o'zining yuridik ahamiyatiga ko'ra, boshqa Qonunlarga nisbatan maxsus huquqiy hujjatdir. Uning ahamiyatini quyidagi misollarda yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Konstitutsiyaning yuridik manbalari amaldagi Konstitutsiyaviy normativ aktlar bo'lib, bu aktlar ichida eng asosiysi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidir. U Konstitutsiyaviy huquqning bosh manbai hisoblanadi. Unda O'zbekiston Respublikasining davlat va jamiyat tuzilishi, davlat siyosatining yo'nalishlari, inson va fuqarolarning huquqiy holati, respublikamizning milliy

davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishi, davlat organlarining tashkil etilishi va ish faoliyatining asosiy prinsiplari yuridik asosda mustahkamlab qo'yilgan.

Davlatning barcha huquqiy normalari konstitutsiya asosida yaratiladi. Konstitutsiya yuridik kuchi bo'yicha davlatning hamma huquqiy normalaridan yuqori turadi va o'zining ba'zi normalari bilan huquqning boshqa tarmoqlari uchun manba vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham konstitutsiyaviy normalar davlat va jamiyatning bosh mezonlarini o'zida mujassamlashtiradi va butun Respublika huquqiy tizimining negizi va manbai hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi ham konstitutsiyaning manbai bo'lib hisoblanadi.

Konstitutsiyaning asosiy manbalaridan yana biri O'zbekiston qonunlaridir. Qonunlar davlatning qonun chiqaruvchi oliy organi - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan yoki xalq referendumini orqali qabul qilinadi. Qonunlar konstitutsiyaga mos tarzda qabul qilinib, ular ikki turda bo'ladi, ya'ni, Konstitutsiyaviy qonunlar va oddiy yoki joriy qonunlar. Ularning bir-biridan farqi shundaki, Konstitutsiyaviy qonunlar konstitutsiya normalariga aniqlik kiritish, ularni mustahkamlash va rivojlantirishga qaratilgan. Ular muhim davlat va ho'jalik qurilishiga, fuqarolarga doir masalalarni huquqiy tartibga soladi.

Konstitutsiyaning manbalaridan yana biri O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining va Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining ish tartibi to'g'risidagi qonunlar (reglament) hisoblanadi. Mazkur aktlar kondifikatsiya tartibida tuzilgan bo'lib, qonun chiqaruvchi Oliy hokimiyat organlarining faoliyatini tartibga solib turadi.

Oliy vakolat organlar tomonidan qabul qilinadigan nizomlar ham konstitutsiyaning manbai hisoblanadi. Masalan, 1995-yil 5-mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qo'mita va komissiyalari to'g'risidagi nizom" shular jumlasidandir.

Konstitutsiyaviy huquq manbalari to'g'risida gap ketganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlariga alohida e'tibor berish lozim.

Shu bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi tomonidan qabul qilingan, tarkibida Konstitutsiyaviy huquqiy normalar bo'lgan qarorlar, mahalliy hokimiyatning ba'zi bir qarorlari ham, hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tuzgan xalqaro bitim va shartnomalari ham konstitutsiyaning manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Yangi Konstitutsiyaning manbalari quyidagilar: O'zbekiston suvereniteti to'g'risidagi deklaratsiya (1990-yil, 20-iyun); O'zbekiston mustaqilligi asoslari to'g'risida Respublika Qonuni, Bayonoti (1991-yil 31-avgust); Xalqaro hujjatlardan - "Inson huquqlari Butunjahon Deklaratsiyasi"; "Iqtisodiy, sotsial va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro akt"; "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida Pakt"; milliy an'analar, urf-odatlar va eng asosiysi jahon mamlakatlarining, MDX a'zosi bo'lgan davlatlarning konstitutsiyaviy rivojlanish tajribasi va boshq.

Xulosa, qilib aytganda konstitutsiyaning ustunligi va barqarorligi o'z navbatida, jamiyat oliy normalari, va qadriyatlarining ifodasi bo'lish konstitutsiyaning ma'naviy obro'yini ko'taradi.

3.3. Konstitutsiyaning davlat va jamiyat hayotidagi to'tgan o'rni. Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar tushunchasi, sub'ektlari. O'zbekiston Konstitutsiyasining 2-moddasida shunday deyilgan: "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar".

Ushbu modda Qomusimizning eng muhim xususiyatlaridan biri o'z ifodasini topgan. Unda jamiyat va fuqarolar manfaatining ustunligi holda davlatning ular oldida javobgarligi qonun bilan mustahkamlangan va kafolatlangandir. Unda davlatning ijtimoiy ahamiyati belgilab berilgan, uning maqsadi xalq manfaatlariga xizmat qilish ekanligi ko'rsatilgan.

Shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar asosan shaxs va davlatga nisbatan munosabatni aks ettiradi, davlat jamiyatning siyosiy tashkiloti bo'lib, ana

shu jamiyatni gavdalantiradi. Shaxsning jamiyat va davlat bilan munosabatlari xarakteri insonning jamiyat va davlatdagi holati belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida uch asosiy qadriyat "shaxs-jamiyat-davlat" belgilab qo'yilgan. Shaxs-fuqarolik jamiyatning erkin, ongli, mustaqil tarkibiy qismidir. Xalq har qanday hokimiyatning sohibi va chinakam manbai. Davlat - jamiyat va shaxs manfaatlari va huquqlarini mustaqil, xalqchil, huquqiy himoyachisidir. Shunday ma'noda konstitutsiya fuqaro, jamiyat va davlat hokimiyati o'rtasida tuzilgan o'ziga xos ijtimoiy shartnomadir.

Istiqlol sharofati bilan har bir inson, uning hayoti, erki, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa huquq hamda erkinliklari muqaddas deb e'lon qilindi va davlat himoyasiga olindi. Bu nihoyat muhim ahamiyatga ega huquqiy yutuqdir. Chunki so'nggi 70-yil mobaynida O'zbekiston sobiq sovet ma'muriy-buyruqbozlik tuzumiga qaramlik va sig'inish holatida edi. Endi esa barcha davlat idoralari va mansabdor shaxslar hamda fuqarolar oldida mas'uldirlar.

Davlatning fuqarolar oldida mas'ulligi demokratik huquqiy davlatning muhim belgilaridan hisoblanadi.

Aynan davlatning odamlarning huquq va erkinliklari uchun bo'lgan jamiyat ustidan xavfli xukmronligiga yo'l qo'ymaslik maqsadida, Konstitutsiya davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqaro oldidagi majburiyatini belgilab qo'ygan.

Davlatning fuqarolar oldida mas'ulligi demokratik huquqiy davlatning muhim belgilaridan hisoblanib, mas'ulligi prinsipi O'zbekistonning Konstitutsiyaviy rivojlanishi tarixida birinchi bor mustahkamlab qo'yildi.

Har qanday huquqiy munosabatlar eng kamida huquqiy majburiyatlar bajaruvchi, ikkitadan kam bo'lmagan ma'lum sub'ektlardan tashkil topadi. Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar shu munosabatlarning ishtirokchilari orqali amalga oshiriladi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning sub'ektlari deb ularning tomonlari sifatida shu munosabatlarda ishtirok etuvchilarga aytiladi.

Konstitutsiyaviy huquqiy munosabatlarning sub'ektlari quyidagilardan iborat:

- fuqarolarning umumiy yigindisi bo'lgan O'zbekiston xalqi;
- milliy davlat tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarda millatlar va elatlar;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi;
- O'zbekiston Respublikasi davlat organlari (Masalan, Oliy Majlis, Respublika Prezidenti, Oliy Majlis Ceenati raisi, Qonunchilik palatasi Cpkikeri, Vazirlar Maxkamasi, vazirliklar, davlat qo'mitalari, hokimlar va boshqalar);
- O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar;
- jamoat birlashmalari;
- deputatlar va ularning kengashlari;
- fuqarolarning turar joy va ish joyidagi umumiy yig'ilishlari, o'zini o'zi boshqarish organlari;
- fuqarolar Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning sub'ekti sifatida huquqiy layoqat va muomala layoqatiga ega bo'lishlari kerak.

3.4. O'zbekiston Konstitutsiyasining sobik sho'ro tuzumi

Konstitutsiyalaridan farqi va o'ziga xos jihatlari. Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi ilgari qabul qilingan Konstitutsiyalardan farq qiladi. Prezident I. Karimov aytganidek, yangi Konstitutsiyaning avvalgi Konstitutsiyalardan farqi, Avvalo bu Konstitutsiya o'zining tub mohiyati, falsafasi, g'oyasiga ko'ra yangi hujjatdir. Unda kommunistik mavkura, sinfiylik, partiyaviylikdan asar ham yo'q. Jamiki dunyoviy ne'matlar orasida eng ulug'i - inson degan fikrni ilgari surdik va shu asosda "fuqaro-jamiyat-davlat" o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning oqilona huquqiy yechimini topishga intildik.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Asosiy Qonunida avvalgi sho'ro tuzumi davridagi Konstitutsiyalaridan farqli ravishda konstitutsion tartibga solishning markazlashgan zurovonligiga barham berilgan. Biroq unda g'arb mamlakatlarining demokratik konstitutsiyalariga xos bo'lgan fuqarolik jamiyati meyorlari, hokimiyatni taqsimlash, bir-birini tiyib turish va muvozanatini saqlashga oid qoidalar oqilona hisobga olingan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilishning asosiy sabablaridan biri shundan iboratki, O'zbekistonda ilgari amal qilib kelgan, konstitutsiyalar avvalgi totalitar tuzumni himoya qilar edi. Boshqarish va ho'jalik yuritishning ma'muriy-buyruqbozlik usullarini yoqlaydigan, ishlab chiqarish vositalarini umumxalq mulki bo'lishini tan oladigan, xususiy mulk huquqini, erkin raqobatni batamom rad etadigan bozor iqtisodiyoti qonunlarning amal qilishini cheklab qo'yadigan qoidalar rasman mustahkamlab qo'yilgan edi. Konstitutsiya va qonunlarni qayta ko'rib chiqmasdan turib, uni yangi sharoitga moslashtirmasdan turib, O'zbekistonda demokratik huquqiy davlatni ko'rish mumkin emas.

Qabul qilingan Asosiy Qonunni nima uchun birinchi Konstitutsiya deyapmiz? Nima oldingi Konstitutsiyalar O'zbekistonniki emasmi?-degan savol tug'ilishi tabiiy. Bunday deyishga bir necha sabablar bor.

Birinchidan, O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan sung muqarrar ravishda o'zining asosiy Qonunini qabul qilishga zaruriyat tug'ildi. Chunki har bir mustaqil davlat o'zining kontitutsiyasiga ega bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, biz bozor iqtisodiyoti tomon odimlab borar eqanmiz, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotiga oid eng asosiy masalalar Konstitutsiya tomonidan tartibga solinadi.

Uchinchidan, qabul qilingan Konstitutsiya kimningdir ko'rsatmalarsiz, biron-bir tayyor andozadan ko'chirmachilik yo'li bilan emas, balki jahon va tarixiy Konstitutsiyaviy tajriba va amaliyotdan kelib chiqib tayyorlandi.

To'rtinchidan, Asosiy Qonunimizda so'nggi yillarda Respublikamizda joriy etilgan va hayot tajribasidan o'tgan yangi konstitutsiyaviy ehtiyojlar o'z aksini topgan. Misol uchun, bunday institutlar jumlasiga Prezidentlik boshqaruv shakli, hokimlik instituti konstituttsiyaviy nazorat, ko'ppartiyaviylik va boshqalar kiradi.

Asosiy Qonunimizning oldingilaridan va boshqa davlatlarning konstitutsiyalaridan ajralib turadigan jihatlari quyidagilardan iborat:

- u o'zining tub mohiyati va falsafasi, maqsadlari va goialariga ko'ra yangi hujjatdir. Respublikamizning oldingi asosiy Qonunlari biz sobiq ittifoq tarkibida qog'ozdagi "Mustaqil" bo'lgan Konstitutsiyalar edi;
- ushbu Qomusimiz birinchi moddasidan to oxirgi moddasigacha mustaqillik g'oyasi bilan sug'orilgan;
- asosiy Qonun o'zining ichki tuzilishi va yangi konstitutsiyaviy instutlari bilan ham ajralib turadi. Bunda 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonun muhim mezon bo'lib xizmat qildi;
- asosiy Qonun boshqa konstitutsiyalardan farqli o'larok, o'ta mafkuralashtirish va siyosiyashtirish ruhi bilan sug'orilmagan. Unda kommunistik mafkura, sinfiylik, partiyaviylikdan asar ham yo'q;
- asosiy Qonun jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan xalqaro huquq talab va qoidalariga javob beradigan tarzda tayyorlangan. Chunki O'zbekiton xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ekti sifatida o'zining Konstitutsiyasida shunday talab va qoidalarni tan olgan va mustahkamlagan;
- asosiy Qonun jahon konstitutsiyaviy tajribasiga keng tayanish va ijobiy tomonlardan atroflicha foydalanganligi bilan ham ajralib turadi. Konstitutsiyamiz eng taraqqiy etgan mamlakatlar, ya'ni: AQSh, Turkiya, Fransiya, Germaniya, Shvetsiya, Italiya kabi G'arb davlatlari, ruhiyati va etnik jihatlardan bizga yaqin bo'lgan Yaponiya, Misr, Hindiston va boshqa Sharq davlatlarining boy tajribasidan eng demokratik jihatlarini, insonparvarlik g'oyalarini tarannum etuvchi xalqaro hujjatlarning talablarini o'zida jamlagan;
- Asosiy Qonunimizni mustaqil davlatimiz ravnaqining huquqiy kafolati darajasiga ko'taruvchi eng muhim belgi unda jahonning ilg'or konstituiyaviy tajribasini milliy-ma'naviy va huquqiy qadriyatlarimizga, o'zbek xalqining boy tarixiga uyg'unlashtirib qo'llanilganidadir.

Tayanch tushunchalar: davlat, fuqarolik jamiyati, akt, fakultativ, reglament.

Nazorat savollari.

1. Nima uchun Konstitutsiya davlatning asosiy Qonuni hisoblanadi?
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi oldingi qabul qilingan konstitutsiyalaridan farqi nimada?
3. Shaxs-jamiyat-davlat tushunchasini ta'riflab bering?
4. Mustaqillika erishgandan keyin Konstitutsiyaning davlat va jamiyatda to'tgan o'rni qanday?
5. Huquqiy munosabatlar va sub'ektlarga nimalar kiradi?
6. Konstitutsiyaning o'ziga xos jihatlari qanday?

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 12, 13, 14, 19, 21, 22, 24, 25.

4-mavzu. Mustaqil O'zbekistonning 1992 yilgi Konstitutsiyasi va uning asosiy prinsiplari.

Reja

- 4.1. Konstitutsiyaning davlat, millat, xalq suvereniteti prinsiplari va ularning mohiyati.
- 4.2. Xalq hokimiyatchiligi va uni amalga oshirish.
- 4.3. Hokimiyatning taqsimlanishi prinsipi.
- 4.4. Konstitutsiya va qonunning ustunligi prinsipi tushunchasi va mohiyati.
- 4.5. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy prinsiplari.

4.1. Konstitutsiyaning davlat, millat, xalq suvereniteti prinsiplari va ularning mohiyati. Konstitutsiyaga asos qilib olingan prinsiplar o'z mohiyatiga ko'ra huquqiy davlatning eng asosiy talablarini aks ettiradi. Davlat suvereniteti prinsipi – respublikada davlat hokimiyatini tashkil etishning muhim prinsipidir.

«Suverenitet» so'zi fransuzcha so'z bo'lib, u «oliy hokimiyat», aniqrog'i «hokimiyatning oliy hukmdorligi va mustaqilligi» ma'nosini bildiradi. Davlat suverenitetining ma'nosi esa davlat hokimiyatining mamlakat ichkarisida oliy hukmdorligi, tashqi siyosat borasida mustaqil faoliyat ko'rsatishi ma'nosini bildiradi.

Davlat suverenitetining asosiy mazmuni Konstitutsiyaning I bobida aniq ochib berilgan. Chunonchi, «O'zbekiston – suveren demokratik respublika», deb bayon etiladi Konstitutsiyaning 1-moddasidayoq, demakki, respublikaning suvereniteti qonun bilan mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekiston – demokratik davlat. Bu insonparvarlik qonunlariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodidan qat'iy nazar, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir.

O'zbekistonning davlat boshqaruv shakli respublikadir. Respublika - xalq hokimiyati demakdir. Davlat boshqaruvining respublika shakli insoniyat yaratgan eng buyuk umuminsoniy siyosiy qadriyatlardan biridir. Boshqaruvning bu shakli davlat idoralari vakolatlarini aniq belgilab berishni, qonun chiqaruvchi va ijroiya organlarini saylab qo'yilishini anglatadi.

Davlat suvereniteti prinsipiga asosan har qanday davlat o'z hududi va milliy boyliklariga nisbatan eng oliy huquqqa egadir.

«O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi.

O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmasdir», deyiladi Konstitutsiyaning 3-moddasida. Buning ma'nosi shuki, O'zbekiston Respublikasi mustaqil ravishda o'zining milliy davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyatni va boshqaruv organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi. Respublika Konstitutsiyasi o'z hududida ustunlikka ega bo'lgan qonunlar qabul qiladi. Bu prinsiplar suveren davlatning muhim belgilaridan sanaladi.

Davlat suvereniteti beistisno tarzda barcha ijtimoiy hokimiyat vakolatlari faqat konstitutsiyaga binoan tuzilib, amalda bo'lgan davlat institutlarigina to'la va so'zsiz jamlanishini taqozo etadi. Ana shu nuqtai nazardan Konstitutsiyaning 10-moddasi mantiqan juda katta ahamiyatga ega. Jumladan, unda «O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezident ish olib borishi mumkin», deyiladi. Bu yerda O'zbekiston respublikasida davlat hokimiyatini

faqatgina O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida vakolat berilgan davlat idoralari amalga oshirishi mumkinligi nazarda tutilgan. Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi tizimlarini tuzish Konstitutsiyaga xilof sanaladi va qonunga binoan javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

Davlat suverenitetining muhim belgilaridan yana biri – bu davlat tilining ustuvor mavqega ega bo'lishidir. Bu haqda Konstitutsiyaning 4-moddasida shunday deyiladi: «O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi. Ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi».

1989-yil 21-oktabrda ona tilimizga davlat tili maqomini berilishi mustaqillik sari qo'yilgan muhim qadamlardan biri bo'ldi. Bu esa sobiq sho'rolar davridagi «ruslashtirish» siyosati natijasida ona tilimizdan mahrum qilishga qaratilgan harakatga katta zarba edi.

Endilikda o'zbek tilida idora ishlari, hujjatlari olib borilmoqda, ilmiy asarlar, darsliklar o'quv qo'llanmalari yozilmoqda. 2005 yil sentabrdan o'zbek yozuvi lotin alifbosiga o'tdi. Bu bilan xalqimizga jahon madaniyati va axboroti makoniga to'liq kirish imkoniyati ochiladi. O'zbek xalqining , uning milliy madaniyati va o'ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo'lmish o'zbek tilining har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, bu tilning davlat tili maqomidek salohiyatini izchil va to'liq ro'yobga chiqarish muhim vazifamizdir.

Konstitutsiyaning 5-moddasida «O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o'z davlat ramzlari – bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega» deb qayd etilgan. Davlatimiz ramzlari – bayroq, gerb, madhiya O'zbekiston xalqining shon-sharafi, g'ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassam etadi. Ana shu ramzlarni e'zozlash – o'zining qadr-qimmatini, o'z mamlakatiga va shaxsan o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash demakdir.

O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan. Respublikaning davlat bayrog'i mamlakatimiz hududida ilgari mavjud

bo'lgan g'oyat qudratli saltanatlar bayrog'iga xos bo'lgan eng yaxshi an'analarni davom ettirgan holda mamlakatimizning bugungi tabiatiga muvofiq keladigan xususiyatlarni, xalqimizning milliy va madaniy sohalaridagi o'zligini aks ettiradi.

Bayroqdagi oq rang – tinchlik va poklik timsolidir. Bayrog'imizdagi oq rang yosh mustaqil davlatimiz oshib o'tishi lozim bo'lgan yo'lning yorqin va charog'on bo'lishi uchun ezgu niyat timsoli sifatida qo'yilgan.

Bayroqdagi qizil rangli yo'llar – har bir tirik jon qon tomirida oqayotgan hayotiy kuchning , barhayotlilikning ramzidir.

Yashil rang esa – tabiatning timsoli, gurkirab yashnayotgan hayot va hosildorlikning ramzidir. Bayroqdagi yarim oy – o'zbek xalqining ko'p asrlik an'analariga muvofiq keladi. Chunonchi, yarim oy musaffo osmonning, tinchlikning ramzidir. 12 raqami – qadimdan xalqimiz orasida mukammallik timsoli bo'lib kelgan. Shu boisdan ham bayrog'imizga o'n ikki yulduzning tasviri tushirilgan. Davlat bayrog'i bizning ko'hna o'tmishimiz, bugungi kunimiz va buyuk kelajagimizning ramzidir.

O'zbekistonning Davlat gerbi 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan. Gerbimizning markazida qanotlarini keng yoyib turgan Humo qushi tasvirlangan. Humo qushi qadim afsonalarga ko'ra baxt-saodat va erksevarlik ramzi bo'lib kelgan

Gerbning yuqori qismida O'zbekistonning sobitlik va barqarorlik ramzi bo'lgan sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan bo'lib, uning ichida yarim oy va besh qirrali yulduz tasviri bor. Gerbimizdagi endigina ko'tarilib kelayotgan quyosh tasviri o'zbek davlati va xalqining hayot yo'li hamisha nurli bo'lishi uchun bildirilgan ezgu niyatdir. Gerbdagi ikkita daryo - bu o'lkamizni obi hayot bilan ta'minlab kelayotgan Amudaryo bilan Sirdaryodir. Bu daryolar oralig'idagi yam-yashil dala-bog'lar esa yurtimizning tabiiy-iqlim sharoitini ko'rsatib turadi.

Gerbdagi boshqa tasvirlar rizq-ro'zimiz bo'lmish g'allaning, oppoq bo'lib ochilayotgan paxta chanoqlari timsoli davlat bayrog'i rangidagi lenta bilan o'rab qo'yilgan – bu mamlakatimizda yashayotgan xalqlarning yakdilligini bildiruvchi timsoldir.

1992-yil 10-dekabrda O'zbekistonning davlat madhiyasi tasdiqlangan. Davlat madhiyasining she'ri Abdulla Oripov yozgan, musiqasini esa taniqli san'at arbobi Mutal Burhonov bastalagan.

Konstitutsiyaning 6-moddasida Respublikamizning poytaxti Toshkent shahri ekanligi bayon etilgan.

Davlat suverenitetining muhim belilaridan biri – bu davlatning xalqaro munosabatlarda to'la huquqli sub'ekt sifatida mustaqil faoliyat ko'rsatishidir. Chunki, tashqi siyosatda har bir davlat boshqa davlat suverenitetini hurmatlashi, u bilan hisoblashishi lozim. Davlatlararo munosabatlar boshqalar suverenitetini hurmat qilgan holda o'zaro kelishuv va shartnomalar asosida olib borilishi zarur. Ularda ko'zda tutilgan qoida va talablar har bir davlat uchun majburiydir. Davlatlarning suveren tengligi prinsipi BMT Nizomida belgilangan asosiy qoidalardan biridir.

Suverenitet haqida fikr yuritar ekanmiz, shubhasiz, davlat suvereniteti siyosiy adabiyotlarda qo'llanib kelayotgan xalq suvereniteti, milliy suverenitet tushunchalari bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlash lozim. Bu tushunchalar bir-birini to'ldiruvchi va bir-birini taqozo etuvchi tushunchalar ekanligini ta'kidlamoqchimiz.

Chunonchi, milliy suverenitet – millat (xalq)ning ijtimoiy-siyosiy tuzumni erkin tanlash, bir butun erkin hududga, iqtisodiy mustaqillikka ega bo'lish, uning urf-odatları, madaniyati, milliy sha'ni va fazilatlarini hurmat qilish, boshqa xalqlar va millatlar bilan bir qatorda bo'lish huquqidir. Milliy suverenitet millatning to'la hukmronligi, uning siyosiy ozodligi, o'z taqdirini to'la va butunicha hal qilish imkoniyatiga ega bo'lish, birinchi navbatda, alohida davlat bo'lib ajralib chiqish va o'z taqdirini o'zi hal qilish qobiliyatini saqlab qolishdir.

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, milliy suverenitet millatning paydo bo'lishi bilan bog'liq tushunchadir. Garchi bu ta'riflarda milliy suverenitet har bir millatning siyosiy ozodlikka erishishi, alohida davlat bo'lib ajralib chiqish g'oyasini o'z ichiga olishi aks ettirilgan bo'lsa-da, lekin podsho Rossiyasi istilosi va sobiq Ittifoq sharoitida buning aksicha yo'l tutildi. Mustamlaka xalqlarning o'z

nomi bilan ataladigan davlatiga ega bo'lish huquqini chegaralab keldi. Buning oqibatida milliy o'lkalarda har bir xalqning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini qo'lga kiritish uchun, davlat suverenitetiga erishish uchun goh oshkora, goho yashirin kurash olib borishiga to'g'ri keldi.

Shunday qilib, suverenitet davlatning ichki va tashqi siyosatda to'liq mustaqilligini anglatadi. O'zbekistonning suvereniteti o'zining ichki va tashqi siyosatini o'zi belgilab olishi va mustaqil yuritishini bildiradi.

Davlatning to'liq mustaqilligi xalqning huquqi bilan cheklangan bo'ladi. Shuning uchun ham ko'pchilik davlatlarning Konstitutsiyalarida xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir, deb yozib qo'yilgan. Davlat suvereniteti xalq suvereniteti bilan cheklanadi, xolos. Xalq mamlakatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy tuzumini belgilash huquqiga egadir. Davlat xalqning oliy huquqini hurmat qilishga majburdir.

4.2. Xalq hokimiyatchiligi va uni amalga oshirish prinsipi. Konstitutsiyada xalqimiz azaldan orzu qilgan o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi qonunlashtirilgan. Shu sababli yangi Konstitutsiya xalq hokimiyati prinsipiga asoslanadi va uni mustahkamlaydi. Xalq hokimiyati degan ibora butun hokimiyat amalda va yuridik jihatdan xalqniki ekanligini anglatadi. Xalq hokimiyati o'z vazifasini ham bevosita, ham o'zi saylagan davlat organlari orqali amalga oshiradi. Xalq hokimiyatchiligi prinsipi Konstitutsiyada shunday ifodalangan:

«Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir.

O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidan amalga oshiriladi» (7-modda).

O'zbekistonda davlat xalq irodasini ifodalaydi, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai ekanligi to'g'risida gap ketar ekan, xo'sh xalq davlat hokimiyatini qanday yo'l bilan amalga oshiradi? - degan tabiiy savol tug'iladi. Yuqorida keltirganimiz Konstitutsiyaning 7-moddasida bu savolga aniq javob berilgan.

Bugungi kunda xalq hokimiyatchiligining jahondagi demokratik davlatlar tajribasida ishlab chiqilgan quyidagi ikkita shakli - to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni bevosita demokratiya va vakillik demokratiyasi shakllari mavjud. To'g'ridan-to'g'ri, ya'ni bevosita demokratiya shakliga ko'ra fuqarolar davlat ishlarini hal etishda to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etadilar. Vakillik demokratiyasida esa fuqarolar davlat ishlarini hal etishda o'zi saylagan vakillari – deputatlar orqali ishtirok etadilar.

O'zbekistonda demokratiyaning bu shakllari konstitutsiyaviy tarzda mustahkamlangan. Bevosita demokratiyaning asosiy ko'rinishlaridan biri – referendum O'zbekiston Konstitutsiyasida alohida ravishda belgilangan. «Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo'yiladi, - deyiladi Konstitutsiyaning 9-moddasida. Referendum o'tkazish tartibi qonun bilan belgilangan».

Referendum so'zining ma'nosi lotincha «ma'lum qilinishi lozim bo'lgan narsa» degan ma'noni beradi. Ya'ni, bunda hal qilinishi lozim bo'lgan muhim masalalar xalqqa ma'lum qilinadi va ovoz berishi orqali hal etiladi. Referendum bugungi kunda respublikamizda demokratiyaning ko'rinishlaridan biri sifatida Konstitutsiyada qonunlashtirilgan bo'lib, u xalq hokimiyatini bevosita amalga oshirish vositasi sifatida qo'llanilib kelinmoqda. Respublikamizda referendum o'tkazish tartibi 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining Referendumi to'g'risida»gi qonuni bilan tartibga solinadi. Unga ko'ra referendumda qabul qilingan qarorlar oliy yuridik kuchga ega bo'lib, faqat referendum o'tkazish yo'li bilan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

Mustaqillik yillarida o'tkazilgan referendumlarni ko'rib chiqaylik. 1991-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risidagi masalaga doir referendum o'tkazilib, unda O'zbekiston xalqi Oliy Kengash tomonidan e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini ma'qullagan edi.

1995-yil 26-martda o'tkazilgan referendumga respublika Prezidenti vakolatini 2000-yilgacha uzaytirish to'g'risidagi masala kiritilgan bo'lib, unda O'zbekiston fuqarolari Prezident vakolatini uzaytirishni ma'qullab ovoz bergan edi.

Referendum haqida gap ketganda, shu narsani ta'kidlash zarurki, davlat va jamiyat hayotiga taalluqli barcha masalalar ham referendumga qo'yilavermaydi. Masalan, respublika hududiy birligini o'zgartirish, soliqlar, byudjet, amnistiya, jamoat tartibini, aholining sog'ligini va xavfsizligini ta'minlash yuzasidan favqulodda va shoshilinch choralar ko'rish to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasi tuzgan shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish haqidagi, mansabdor shaxslarni tayinlash va ishdan bo'shatish bilan bog'liq masalalar umumxalq ovozi – referendumga qo'yilmaydi. Bu masalalar Konstitutsiyaga binoan davlat hokimiyat organlari, xususan Oliy Majlis va Prezident tomonidan ko'rib chiqilib hal etiladi. Chunki, O'zbekistonda amaldagi qonun hujjatlariga ko'ra Oliy Majlis ham, Prezident ham xalq tomonidan bevosita saylanadi.

Hozirgi kunda respublikamizda eng muhim qonun loyihalarini umumxalq muhokamasiga qo'yish qonuniy tus olgan. Ushbu Konstitutsiya loyihasi ham ikki yarim oy maboynida umumxalq muhokamasidan o'tib, keng xalq ommasining ko'plab taklif va mulohazalari asosida mukammal ishlab chiqilganligi fikrimizning dalilidir.

O'zbekistonda amaldagi xalq hokimiyatchiligining ikkinchi shakli – vakillik demokratiyasi bo'lib, unga ko'ra respublikada davlat hokimiyatining oliy va mahalliy organlariga deputatlar saylash orqali ular shakllantiriladi, hamda respublika Prezidenti saylanadi.

Oliy Majlisga, respublika Prezidenti va xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 28-dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi (1991-yil 18-noyabr), «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi (1994-yil 5-may) qonunlariga asosan o'tkaziladi. Oliy Majlisga va xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga deputatlar xalq tomonidan umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri, yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Shu tariqa O'zbekiston xalqi o'z ichidan munosib nomzodlarni tanlab, ularni Oliy Majlisga va mahalliy davlat hokimiyati organlariga vakil qilib saylaydi. O'zi saylab, vakolat

bergan deputatlar orqali hokimiyatga egalik qiladi. Konstitutsiyaga va Prezident saylovi to'g'risidagi qonunga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ham bevosita xalq tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Prezident ham xuddi shu yo'l bilan xalqdan vakolat oladi va uning nomidan ish ko'radi. Shuning uchun ham Konstitutsiyaning 10-moddasida «O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin» degan qoida mustahkamlangan. Prezident xalq manfaatlarini himoya qilib, uning xohish-irodasini ifoda etib faoliyat yuritadi va farmonlar chiqaradi. Uning tomonidan chiqariladigan farmonlar Konstitutsiyaga asoslangan bo'lib, qonuniy kuchga ega.

O'zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligi to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, «xalq» tushunchasini ham aniqlashtirib olishimiz lozim. Konstitutsiyaning 8-moddasida «xalq» tushunchasiga «O'zbekiston xalqini, millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi» deb qisqacha ta'rif berilgan. Bu konstitutsiyaviy qoidaga ko'ra O'zbekistonda tug'ilgan va uning hududida istiqomat qiladigan har bir shaxs millatidan, irqidan, qaysi dinga e'tiqod qilishidan qat'iy nazar O'zbekiston xalqini tashkil etadi va respublikaning teng huquqli fuqarosi hisoblanadi.

Shunday qilib, Konstitutsiyada belgilangan xalq hokimiyatchiligi prinsipi xalqning suveren xohish-irodasini, uning o'z davlat hokimiyatini ro'yobga chiqarish usullarini yuridik asosda mustahkamlaydi. Bu demokratizmning haqiqiy ko'rinishidir. Chunki xalqning turmush tajribasiga, respublika aholisining milliy va madaniy an'analariga, barcha ijtimoiy guruhlar va qatlamlarning manfaatlariga mos keladigan haqiqiy demokratiya prinsiplarini qaror toptirish yangi demokratik, adolatli jamiyat ko'rishda muhim siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifadir.

4.3. Hokimiyatning taqsimlanishi prinsipi. Hokimiyatlar bo'linishi nazariyasining yaratilishi antik davr donishmandlari – Platon, Aristotel, Polibiylarga borib taqaladi. Ammo uning mustaqil va bir butun siyosiy-huquqiy ta'limot sifatida shakllanishi XYII-XYIII asrlardagi burjua revolyutsiyalari davriga to'g'ri keladi.

Buyuk fransuz tarixchisi va faylasufi Sharl Monteske (1689-1755-yillar) “hokimiyatlar taqsimlanishi” deb nom olgan bir butun tugal ta’limot yaratdi. Uning ta’limotiga ko’ra, adolatli davlatda hokimiyat yagona emas, balki bir-biriga tobe bo’lmagan uchta hokimiyat – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo’linishi lozim. Ularning har qanday ko’rinishda biron-bir organ yoki shaxs qo’lida to’planishi umumiy manfaatga putur yetkazadi, suiste‘molliklarga olib keladi va shaxsning erkinligi bilan aslo sig’isholmaydi. Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning bir qo’lda to’planishi qonunning ustun bo’lishiga zarar yetkazadi, bordi-yu, sudyalar faqat sudlov bilan mashg’ul bo’lmay, qonun yaratish bilan ham shug’ullansalar, u holda insonlar hayoti nohaqlik qurboniga aylanishi mumkin. Hokimiyatlar o’rtasida shunday munosabatlar o’rnatilmog’i lozimki, bunda ularning har biri davlat vazifalarini mustaqil o’tash bilan birgalikda, o’z huquqiy vositalari yordamida bir-birini muvozanatga chorlab tursin, hokimiyat vakolatlarini birgina muassasa tomonidan qonunsiz ravishda tortib olinishini bartaraf etsin. Masalan, qonun doirasida ishlashi lozim bo’lgan ijro etuvchi hokimiyat, ayni paytda qonun chiqaruvchi kengashning faoliyatini chegaralab turishi lozim, aks holda parlament o’zining mutlaq hokimligini o’rnatishi mumkin. Bunga misol qilib ijro etuvchi hokimiyat boshlig’ining qonunlarni imzolashda “veto”, ya’ni rad etish huquqini keltirish mumkin. O’z navbatida, qonun chiqaruvchi organ ijro etuvchi organ tomonidan qonunlar qanday bajarilayotganligini nazorat qilib turishi, hukumatning esa parlamentga hisob berishi hokimiyatda muvozanatni saqlaydi.

Boshqaruvning bunday tizimi birinchi marta 1787-yilda qabul qilingan AQSh Konstitutsiyasida o’z ifodasini topgan. Hokimiyatlar taqsimlanishining klassik namunasi sifatida bugungi kungacha davom etib kelayotgan davlat boshqaruv tizimiga ko’ra AQShda qonun chiqaruvchi hokimiyat vakillar palatasi va senatdan iborat Kongressga tegishli. Ijro etuvchi hokimiyat boshlig’i – Prezident AQShda saylashga vakil qilingan kishilar tomonidan saylanadi. U bir vaqtning o’zida ham davlat boshlig’i, ham hukumat boshlig’i hisoblanadi. Prezident qonunlarni imzolaydi, ammo Kongressga hisob bermaydi.

AQSh Oliy sudi nafaqat odil sudlovni amalga oshiradi, balki konstitutsiyaviy nazoratni ham amalga oshiradi.

Umuman, “hokimiyatlar taqsimlanishi” nazariyasiga ko’ra, davlat hokimiyati yagona, yaxlit, bir butun deb emas, balki turli hokimiyatlar funksiyalarining yig’indisi sifatida tushuniladi. Bunday turli funksiyalarni amalga oshiruvchi hokimiyat organlari bir-biridan mustaqil ravishda harakat qilishlari lozim. Lekin bu uch mustaqil hokimiyat organlari bir-biriga bog’liq emas, degan ma’noni bildirmaydi. Aksincha, ular bir-birini to’ldiradi, nazorat qiladi va bir-birining bo’lishini taqozo etadi.

Hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi muayyan davlatda biror organning yoki alohida davlat rahbarining kuchli diktaturasini o’rnatilishining oldini oladi. Shuningdek, tegishli hokimiyat organlarini amalga oshiradigan vakolatlari, vazifalari aniq belgilab qo’yilishini ta’minlaydi, bir organning ikkinchi organ ishlariga aralashuviga barham beradi, boshqarish sohasida chalkashliklar kelib chiqishiga yo’l qo’ymaydi.

Hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi hokimiyat organlarining o’zaro kelishib, bir-birini nazorat qilib, uyg’unlashib ishlashlariga imkoniyat yaratadi. Ular esa adolatli, huquqiy demokratik davlatga xos jihatlardir.

Hozirgi zamon jahon mamlakatlarning konstitutsiyaviy tajribasi shuni ko’rsatadiki, hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi, ularda ushbu prinsip o’rnatilgan yoki o’rnatilmaganligidan qat’iy nazar, barcha ilg’or chet el mamlakatlari konstitutsiyalarida qabul qilingan.

Xususan, mustaqil O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham bu prinsip rasman 11-moddasida «O’zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo’linishi prinsipiga asoslanadi», deb qonunlashtirilgan. Unga ko’ra, O’zbekistonda davlat hokimiyati qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga taqsimlangandir. Respublikaning qonun chiqaruvchi hokimiyati Oliy Majlis, ijroiya hokimiyati esa O’zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi. Sud hokimiyati Konstitutsiyaviy sud,

Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi tomonidan amalga oshiriladi, ular birgalikda respublikaning yagona sud tizimini tashkil etadi.

Konstitutsiyaning "Davlat hokimiyatining tashkil etilishi" deb nomlangan beshinchi bo'limida ana shu uch hokimiyat organlarining tashkil etilishi, vazifalari, vakolatlari belgilab berilgan. Shu bilan birga, ularning o'zaro faoliyati va munosabatlari haqidagi qoidalar belgilangan.

4.4. Konstitutsiya va qonunning ustunligi prinsipi tushunchasi va mohiyati.

Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta'minlash huquqiy davlatning muhim belgilaridan biridir. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi prinsipi shuni anglatadiki, bunda barcha joriy qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida va unga muvofiq bo'lishi talab etiladi. Buyuk Sohibqiron bobomiz Amir Temur aytganidek: «Qaerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo'ladi». Bu prinsip Konstitutsiyaning III bobida qonunlashtirilgan bo'lib, jumladan, 15-moddada shunday deyiladi: «O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar». Ushbu moddada Konstitutsiya davlatimizning Asosiy Qonuni ekanligi, u boshqa barcha qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlardan yuqori turishi o'z ifodasini topgan.

Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, avvalo ularning bir-biridan farqini ajratib olish zarur. Konstitutsiya davlatning Asosiy Qonuni bo'lib, u boshqa joriy qonunlardan shu bilan farq qiladiki, unda eng asosiy, eng barqaror ijtimoiy munosabatlar, uzoq davrlarga mo'ljallangan va bu qoidalar bevosita amal qilib, boshqa qonun chiqarish hujjatlarida ochib beriladi va konkretlashtiriladi. Shu sababli Konstitutsiya garchi muhim bo'lsada, lekin Asosiy Qonun sifatida barcha qoidalarni o'z ichiga ololmaydi. Konstitutsiyada mavjud bo'lgan qoidalar negizida va ularni rivojlantira borib, zaruriyatga qarab boshqa qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib qabul qilinadi. Bunda barcha joriy qonunlarning huquqiy asosi, bosh manbai Konstitutsiya bo'lib

qolaveradi. Konstitutsiyaning asosiy Qonun sifatidagi ahamiyati, obro'-e'tibori, barqarorligi, uning oddiy qonunlardan farqi shu bilan belgilanadiki, Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega bo'lgan Asosiy Qonun bo'lib, boshqa barcha qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar unga muvofiq kelishi lozim. Boshqacha aytganda, Konstitutsiyani qonunlar qonuni deyish mumkin. Shu bois O'zbekiston Konstitutsiyasida Konstitutsiyaning eng yuqori kuchga egaligi, hamma qonunlardan ustun turishi alohida e'tirof etilgan. Bunda faqat Konstitutsiyaninggina emas, balki uning asosida qabul qilingan qonunlarning ham ustunligi o'rnatiladi.

Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi prinsipi – bu qonunchilikning tantanasidir. Qonunchilik – bu qonunlarning realligidan, jamiyatda chinakam demokratik muhit va haqiqiy huquqiy rejim o'rnatilganligidan dalolatdir. Qonunchilik – bu davlat tomonidan qonunlar tizimini takomillashtirib borish va davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan qonunlarga qat'iy rioya etish va ularni og'ishmay amalga oshirishda namoyon bo'ladigan davlat va jamiyat hayotining prinsipidir. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi prinsipi qonunlarning hamma uchun istisnosiz majburiylikni, hammaning qonun oldida tengligini, qonunlarning hamma yerda bir xilda joriy etilishini anglatadi.

Qonunchilik bilan huquqiy tartibot bir-biridan farq qiladi. Qonunchilikning mazmuni huquqiy me'yorlarga qat'iy va og'ishmay rioya qilishda ifodalansa, huquqiy tartibot esa jamiyat a'zolarining yurish-turishlari, ularning sub'ektiv huquq va burchlariga muvofiq kelishida ifodalanadi. Boshqacha qilib aytganda, huquqiy tartibot huquqiy munosabatlar doirasida shu munosabatlarning ishtirokchilari o'z sub'ektiv huquqlarini amalga oshirishlari va huquqiy burchlarini bajarishlari natijasida vujudga keladi. Demak, qonunchilikni amalga oshirish huquqiy tartibotni ta'minlash vositalaridan biri bo'lsa, huquqiy tartibotni mustahkamlash esa, o'z navbatida qonunchilikni mustahkamlashga yordam beradi. Shu bois ular bir-biridan ajralmasdir.

Shunga ko'ra Konstitutsiyaning 15-moddasida belgilangan qoidaga ko'ra O'zbekistonda Konstitutsiya va qonunlar oldida hamma teng darajada mas'uliyatga ega bo'lib, qonunlar ham o'z navbatida barchaga barobardir.

Konstitutsiyaning 15-moddasi ikkinchi qismida «davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar», deb qayd etilgan. Bundan ko'zlangan maqsad shuki, davlat, uning organlari, jamoat birlashmalari Konstitutsiya va tegishli qonunlar asosida tashkil etiladi va faoliyat yuritadi. Ular Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilgan vakolatlarnigina amalga oshiradilar. Mansabdor shaxslar va fuqarolar ham Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar. Ularning birortasi ham Konstitutsiya va qonunlardan tashqari ish ko'rishga haqli emas. Zero, Konstitutsiya va qonunlarni chetlab o'tish, ularning talablarini buzish g'ayriqonuniy xatti-harakat hisoblanadi. Bunday harakatlar uchun tegishli qonunlarda javobgarlik belgilangan.

Konstitutsiyaning har bir moddasi hayotga tatbiq qilinayotganda xalq va davlat manfaatlariga zarar yetkazmaydigan tarzda talqin qilinishi zarur. Zero, Konstitutsiyaning o'zi xalq va davlat irodasining ifodasidir. Shuning uchun Konstitutsiya va qonunlarning pirovard maqsadi inson, uning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi zarur.

Konstitutsiya davlatimizning Asosiy Qonuni bo'lib, u oliy yuridik kuchga ega bo'lgan hujjatdir. Konstitutsiya huquqning hamma tarmoqlari – ma'muriy, fuqarolik, mehnat, oila, jinoyat huquqi va boshqalar uchun qonunchilik bazasi bo'lib xizmat qiladi.

Konstitutsiyaga binoan O'zbekiston tarixida birinchi marta Konstitutsiya maxsus tarzda himoya qilinadigan bo'ldi. Shu maqsadda respublikamizda Konstitutsiyaviy sud joriy qilindi. Uning vazifasi qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyatlarining qabul qiladigan me'yoriy-huquqiy hujjatlarini Konstitutsiyaga mos kelishini nazorat qilishdan iboratdir. Konstitutsiyaviy sudning tashkil etilishi, vazifalari va vakolatlari haqida konstitutsiyaning 108-109-moddalarida ma'lumot berilgan.

4.5. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy prinsiplari.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatining asosiy qoidalari Konstitutsiyaning 17-moddasida mustahkamlangan. Jumladan, unda: «O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi. Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi», deyilgan.

Bu yerda «O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ektidir» degan konstitutsiyaviy qoida O'zbekistonning hozirgi dunyodagi o'rmini bildiribgina qolmay, balki mamlakatimizning xalqaro hamjamiyatning ajralmas qismi ekanligini ham tasdiqlovchi tushunchadir.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonning tashqi siyosati tubdan o'zgardi. Shu yillar maboynda O'zbekiston 120 dan ortiq davlat bilan diplomatik aloqalarni o'rnatdi. Toshkentda 35 ta davlat elchixonasi ochildi. 19 ta davlat elchilari O'zbekistonda o'rindoshlik asosida ishlamoqda. Respublikada 88 ta xorijiy vakolatxonalar ro'yxatdan o'tgan, 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlari faoliyat olib bormoqda. Konstitutsiya asosida O'zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ektiga aylanishini tasdiqlovchi bir qancha hujjatlar qabul qilindi. Ular jumlasiga, 1992-yilda qabul qilingan «Diplomatik vakolatxonalar boshliqlarini tayinlash va chaqirib olish to'g'risida»gi «Diplomatik xodimlarning darajalarini o'rnatish to'g'risida»gi qonunlarni, 1994-yilda qabul qilingan «Xorijiy sarmoyadorlarning faoliyatini kafolatlash to'g'risida»gi, 1996-yilda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosat faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi, 1998-yilda qabul qilingan «Xorijiy sarmoyadorlar to'g'risida»gi, 2000-yilda qabul qilingan «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi qonunlarni ko'rsatish mumkin.

O'zbekistonning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarini ta'minlashga qaratilgan davlat organlari shakllantirildi. Tashqi ishlar vazirligining funksiyalari va faoliyatining yo'nalishlari tubdan o'zgartirildi. Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi

va tashqi iqtisodiy faoliyat banki tashkil etildi, tashqi savdo bilan shug'ullanuvchi firmalarning maxsus tizimi shakllantirildi, xorijiy firma, bank va kompaniyalarning 260 dan ortiq vakolatxonalarini ochildi.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati respublikaning Konstitutsiyasi normalari va prinsiplariga, respublikaning tashqi siyosatini tartibga soluvchi qonun hujjatlariga, BMTning va O'zbekistonning o'zi a'zo bo'lgan boshqa xalqaro tashkilotlarning prinsiplari va maqsadlariga, O'zbekiston Respublikasi imzolagan xalqaro shartnomalar talablaridan kelib chiqadigan majburiyatlarga asoslanadi.

O'zbekiston tashqi siyosatida ochiqlik, teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik ustuvor prinsiplardan hisoblanadi. Konstitutsiyaning 17-moddasida O'zbekiston tashqi siyosatining quyidagi prinsiplari belgilangan bo'lib, unda:

- davlatlarning suveren tengligi;
- kuch ishlatmaslik yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilmaslik;
- chegaralarning daxlsizligi;
- nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;
- boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa norma va prinsiplariga asoslanishi to'g'risidagi qoida mustahkamlangan.

Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan davlatlarning suveren tengligi prinsipining ma'nosi shuki, ya'ni har bir davlat o'zaro bir-birlarining davlat sifatidagi mustaqilligini hurmatlashi, huquq va erkinliklarini kafolatlashi, o'zining siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishini erkin tanlashi, mustaqil ravishda o'zining qonunlariga va ma'muriy qoidalariga ega bo'lishi lozimligini anglatadi.

Xalqaro munosabatlarda davlatlarning suveren tengligi prinsipi har bir davlatni boshqa davlatlar bilan mustaqil ravishda o'z xohishicha aloqalarga kirishishini bildiradi, ya'ni har bir davlat xalqaro huquq normalariga asosan xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lib kirishi, ko'p tomonlama shartnomalarda qatnashishi yoki betaraf bo'lib qolishi mumkin. O'zbekiston ham ana shu qoidalardan kelib chiqib xalqaro munosabatlarning ko'plab muammolarini hal etishda teng ravishda ishtirok etib kelmoqda.

Tashqi siyosatning kuch ishlatmaslik va kuch ishlatish bilan tahdid solmaslik prinsipi boshqa davlatga nisbatan har qanday holatda ham kuch ishlatishga qaratilgan harakatlardan o'zini tiyishni bildiradi. BMT Nizomining 2-moddasi 4-bandida «kuch ishlatish» deganda faqat qurolli kuchlarni emas, balki majburlashning boshqa shakllari ham kirishi qayd etilgan.

BMT tomonidan 1970-yilda qabul qilingan «Xalqaro huquqning prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiya»ning muqaddimasida davlatlarning kuch ishlatishga yoki kuch ishlatish bilan tahdid solishga qaratilgan barcha harakatlari man etilishi qayd etilgan. Deklaratsiyada ta'kidlanishicha, hech qanday sabab kuch ishlatishga yoki kuch ishlatish bilan tahdid solishga asos bo'la olmaydi.

Davlatlar xalqaro munosabatlarda siyosiy mustaqillik yoki hududiy yaxlitlikka qarshi qaratilgan harbiy, iqtisodiy yoki boshqa biror shaklda tazyiq o'tkazishga haqli emaslar.

Chegaralarning daxlsizligi prinsipi hamma davlatlarning o'zaro bir-birlarining hududiy yaxlitligini hurmatlashini bildiradi. Bu prinsipga muvofiq barcha davlatlar o'zga davlatlarning chegaralarini daxlsiz deb e'tirof etadilar. Ular har qanday davlatning butun hududi yoki hududining bir qismini bosib olish yoxud zo'rlik bilan egallashga qaratilgan har qanday talab va harakatlardan o'zlarini tiyib turish majburiyatini oladilar. Chegaralar to'g'risidagi har qanday mojarolar muzokaralar va xalqaro huquqqa mos keluvchi qoidalar asosida hal etilishi lozim. Bu prinsip O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ham ajralmas qismini tashkil etadi.

Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish prinsipining mohiyati shundan iboratki, barcha nizoli masalalar faqat tinch yo'l bilan va xalqaro huquq qoidalariga mos ravishda hal etilishi lozim, ya'ni xalqlarning qonuniy manfaatlari, tinchligi va xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilishi zarur. Bu prinsipga O'zbekiston og'ishmay amal qilib kelayotganligiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, O'zbekistonning o'tgan asrning 90-yillarining boshlarida Tojikistondagi va keyinroq Afg'onistondagi fuqarolar urushlarini tinch yo'l bilan hal etish to'g'risidagi takliflarini qayd etish mumkin.

Boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsipi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplariga asoslanadi. Bu prinsip BMT Nizomining 2-moddasi 7-bandida va Bosh Assambleyaning 1965-yilda qabul qilingan «Davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va ularning mustaqilligi hamda suverenitetini himoya qilish to'g'risidagi Deklaratsiya»sida qayd etilgan. Bu prinsipning tan olinishi davlatlar o'zaro munosabatlaridan qat'iy nazar, boshqa davlatning ichki va tashqi ishlariga har qanday aralashishdan o'zlarini tiyib turishlarini anglatadi. Xalqaro huquqning ushbu prinsipi boshqa davlatning tuzumini kuch bilan ag'darib tashlashga qaratilgan har qanday terroristik yoki qo'poruvchilik harakatiga yordam berishdan o'zini tiyib turishni bildiradi.

Konstitutsiyada qayd etilgan «xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi» degan qoidaga – inson huquqlarini, hududiy yaxlitlik, xalqlar va millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini, xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan hamkorlik va xalqaro majburiyatlarni ko'rsatish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning bu kabi umume'tirof etilgan norma va qoidalariga og'ishmay amal qilib keladi. O'zbekiston boshqa davlatlar bilan birgalikda umumiy va adolatli tinchlikni, o'zaro foydali hamkorlikni, insoniyat oldida turgan global muammolarni birgalikda hal qilishni ta'minlashga kuch-g'ayratini sarflab kelmoqda.

Buni quyidagi dalillar ham tasdiqlaydi: O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin 500 dan ortiq ko'p tomonlama va ikki tomonlama shartnomalar va bitimlar imzoladi, 80 dan ortiq xalqaro Konvensiya va shartnomalarga qo'shildi. Jumladan, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Pakt, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Pakt, Yangi Yevropa uchun Parij Xartiyasi, Yadro qurollarini tarqatmaslik to'g'risida Shartnoma, Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha ko'rinishlarini bartaraf etish to'g'risidagi Konvensiya, Onalikni muhofaza qilish to'g'risidagi Konvensiya, Bandlik sohasidagi siyosat to'g'risidagi Konvensiya, Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning

noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiya, Xalqaro shartnomalar, diplomatik aloqalar, konsullik aloqalari huquqi to'g'risidagi Vena Konvensiyasi, Umum dunyo madaniyat va tabiat merosini himoya qilish to'g'risidagi Konvensiya, Madaniy boyliqlarni noqonuniy olib kirish va mulk huquqini biron birga berishni man qilish va oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi Konvensiya va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Konstitutsiyaning 17-moddasi 2-qismida «Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlarini, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin», degan konstitutsiyaviy qoida bor. Bu qoida O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi Qonunining 2-moddasida «O'zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq, O'zbekiston davlatning, xalqning oliy manfaatlarini, farovonligi va xavfsizligini ko'zlab, ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin», deb yanada mustahkamlangan. Bu konstitutsiyaviy qoidalardan shu narsa anglashiladiki, basharti O'zbekistonning ittifoqlar tuzishiga, hamdo'stliklarga a'zo bo'lishiga va davlatlararo tuzilmalarga kirishiga ulardagi a'zolik davlatimizning va xalqimizning oliy manfaatlarini, farovonligi va xavfsizligiga zid kelmagandagina yo'l qo'yiladi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq O'zbekiston faol tashqi siyosat yurita boshladi. Buning natijasida uning xalqaro obro'si oshib, jahon hamjamiyatidagi o'rni va nufuzi o'sib, mustahkamlanib bordi. 1992-yilning 2-martida BMTga a'zo bo'lib kirdi. O'zbekiston to'la huquqli asosda dunyoning eng nufuzli va ta'sir kuchiga ega bo'lgan xalqaro tashkilotlariga a'zo bo'lib kirdi. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, Qo'shilmaslik harakati, Parlametlararo Ittifoq, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi, Interpol kabi tashkilotlarni ko'rsatish mumkin. Shuningdek, O'zbekiston BMTning deyarli barcha ixtisoslashgan tashkilotlari faoliyatida ishtirok etib kelmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston 30 dan ortiq yetakchi xalqaro iqtisodiy va moliyaviy birlashmalar bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda. Masalan, Xalqaro

valyuta fondi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Markaziy Osiyo tiklanish banki, Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Qora dengiz bo'yi mamlakatlarining iqtisodiy assotsiatsiyasi va boshqalar shular jumlasidandir.

1996-yilda O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasida «Sheriklik va hamkorlik to'g'risida Bitim» imzolandi. 1991-yil 21-dekabrda respublika Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga azo bo'lib kirdi. O'zbekiston Respublikasi davlatlararo bitimlarga, ayniqsa iqtisodiy yo'nalishdagi bitimlarga ustuvorlik beradi, chunki ular barqarorlik, izchil rivojlanish va mamlakat xavfsizligini ta'minlashga imkon beradi, respublikamizning jahon xo'jalik aloqalariga axborot, texnologik va kommunikatsiya jihatidan kirishiga yordam beradi.

Tayanch tushunchalar: suverenitet, referendum, prinsip, kompaniya, konsensiya, shartnoma.

Nazorat savollari.

1. Qonuniylik prinsipining ta'minlanishida davlatning vazifasi nimadan iborat.
2. Qonun ustuvorligini amalda ta'minlash uchun nima qilish kerak?
3. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi deganda nimani tushunasiz?
4. Xavfsizligimizga tahdid bo'lib turgan muammolarga nimani qarshi qo'ya olamiz?
5. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy printsiplariga nimalar kiradi?
6. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan aloqalari haqida gapirib bering?
7. O'zbekistonning BMT bilan aloqalari qanday rivojlanib bormoqda?

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 9, 12, 13, 14, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23, 24, 25.

5-ma'ruza. O'zbekistonda inson va fuqarolarning asosiy huquqlari,

erkinliklari va burchlari.

Reja

- 5.1. Inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari haqidagi konstitutsiyaviy qoidalar.
- 5.2. Fuqarolik va uning konstitutsiyaviy asoslari.
- 5.3. Fuqarolarning huquq va erkinliklarining asosiy turlari.
- 5.4. Shaxsiy huquq va erkinliklar.
- 5.5. Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar.
- 5.6. O'zbekistonda inson huquqlarining konstitutsiyaviy kafolatlari.
- 5.7. Fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlari.

5.1. Inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari haqidagi konstitutsiyaviy qoidalar. O'zbekiston mustaqillikka erilgach, ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalarini demokratlashtirish yo'liga o'tdi. Jahon tajribasidan ma'lumki, insonning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilmasdan va amalda ta'minlamasdan turib, jamiyat hayotini demokratlashtirish mumkin emas. Xalqimizning boy ma'naviy salohiyati, uning tasarrufida bo'lmish ulkan tabiiy boyliklari va texnikaviy imkoniyatlari, mustahkamlanib borayotgan xalqaro aloqalar demokratik rivojlanish hamda inson huquqlariga rioya etilishi uchun zarur shart-sharoitlarni bosqichma-bosqich yaratish imkonini bermoqda.

Inson huquqlari negizida inson shaxsi qadriyati turadi. Xalqaro maydonda inson huquqlarining uch bo'g'ini bir-biridan farqlanadi: birinchisiga fuqarolik va siyosiy huquqlar, ikkinchisiga yashash huquqi, qiynoqqa solishning taqiqlanishi, adolatli sudlov, shaxsiy hayotning daxlsizligi, fikr va o'z erkinligi, jamoat uyushmalariga birlashish huquqi, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar – bilim olish, mehnat qilish, ijtimoiy ta'minot olish huquqi, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi, uchinichisiga, tinchlik va rivojlanishga bo'lgan huquqlar kiradi.

Ushbu qoidalar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarida mustahkamlab qo'yilgan. Konstitutsiyaning ikkinchi bo'limi «Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari» deb nomlangan bo'lib, bu bo'limga kirgan Y- XI boblarida inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklari bo'yicha asosiy konstitutsiyaviy qoidalar mustahkamlangan. Konstitutsiyada belgilangan qoidalar va prinsiplar fuqarolar o'z huquq va erkinliklaridan to'g'ri foydalanishlari va zimmlariga yuklatilgan burchlarini vijdonan bajarishlari lozimligi bayon qilinadi.

Har bir shaxs Konstitutsiya va boshqa qonunlarda belgilangan qoidalarni chuqur o'rganib ularga kundalik hayotda amal qilib yashashlari lozim bo'ladi. Ayniqsa, yoshlar oila, maktab va keyingi bosqichdagi o'quv muassasalarida, kelajakda esa ish joylarida ichki tartib-intizomga muntazam amal qilib borsalar, hayotimiz xavfsiz, davlatimiz rivojlanishi barqaror va farovon bo'ladi.

Konstitutsiyamizda mustahkamlangan inson huquqlari sohasidagi yana bir muhim qoida – bu ijtimoiy adolat prinsipining qaror topishiga qaratilgan qoidadir. Konstitutsiyaning 14-moddasida «Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi» degan qoida mustahkamlangan. Shu bois ham insonga munosib hayot tarzini ta'minlash umumdavlat siyosati darajasiga ko'tarilgandir.

O'zbekiston ijtimoiy adolatga asoslangan davlatdir. Davlatimizning rivojlanish yo'lini belgilab bergan besh tamoyildan bittasi aholini kuchli ijtimoiy himoya qilishdan iborat ekanligi ham bejiz emas. Unga ko'ra bugungi kunda aholining .eng nochor qatlamlari – nogironlar, ko'p bolali oilalar, yetim-esirlar, qariyalar ijtimoiy jihatdan himoyalanoqda.

Konstitutsiyaning 18-moddasida «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilab qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart», deyilgan. Bu fuqarolarning umumiy tengligi

qoidasi bo'lib, u archa fuqarolar huquqlari va burchlari tengligini bildiradi. Bunday tenglikning asosiy talabi qonunning hamma uchun bir xil kuchga ega ekanligidir.

Fuqarolarning teng huquqliligi mustaqilligimizning buyuk yutug'idir. Teng huquqlilik – bu turli millat va elatlarning teng huquqliligi, barcha fuqarolarning qonun va sud oldidagi teng huquqliligini, kasb tanlashda, bilim olishda shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlardan foydalanishdagi teng huquqlilikni anglatadi.

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 1-moddasida «Har bir inson yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egadir», degan qoida belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Konstitutsiyasining 24-moddasida «Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir», deyiladi. Har ikkala hujjatda qayd etilgan qoida o'z mazmuniga ko'ra bir-biriga juda yaqindir. Bu esa O'zbekistonda inson va fuqarolarning huquqlarini barcha ko'rinishlari tan olinganligi va kafolatlanganligidan dalolat beradi.

Konstitutsiyada yashash huquqining e'lon qilinishi davlat tomonidan uni qo'riqlash va himoya qilishning kuchli mexanizmini yaratishni talab qiladi.

Konstitutsiyamizning 20-moddasida «Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart», deyilgan. Bu qoidaning mazmuni shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarining uyg'unlashganligida ifodalanadi. Har bir fuqaroning o'z huquq va erkinliklarini, burchlarini yaxshi bilishi, anglashi – uning boshqalar tomonidan bunday huquqlarning poymol etilishiga yo'l qo'ymaslikdir.

Kishilar o'z huquq va erkinliklarini qanchalik yaxshi bilsalar va unga amal qilsalar, shunchalik darajada jamiyatdagi mavjud illatlarga qarshi keskin kurasha oladilar. Hech kim fuqarolar ustidan tazyiq o'tkaza olmaydi. Bu esa butun jamiyat hayotining yanada demokratlashuviga yordam beradi. Lekin har bir fuqaro o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqalarning huquqlariga, davlat va jamiyat manfaatlariga putur yetkazmasligi shart.

5.2. Fuqarolik va uning konstitutsiyaviy asoslari. Fuqarolik deganda shaxsning maʼlum bir davlat bilan uzviy siyosiy-huquqiy munosabati tushuniladi, bunda shaxsning huquq va erkinliklari davlat tomonidan qoʻriqlanadi, oʻz navbatida, shaxs ham jamiyat va davlat manfaatlaridan kelib chiqib, maʼlum majburiyatlarni bajarishni oʻz zimmasiga oladi.

Fuqarolik munosabatlari shaxs tugʻilganidan yuzaga kelib, uning umri davomida saqlanib qoladi. Bu bogʻliqlik insonning tugʻilgan va yashayotgan hududi bilan cheklanmaydi, u davlat hududining tashqarisida ham oʻz kuchini yoʻqotmaydi. Shaxs va davlat munosabatlaridagi mavjud holat orqali davlat hokimiyati faoliyatiga va jamiyat aʼzolarining siyosiy, huquqiy, madaniy darajasiga baho berish mumkin.

Shaxs davlatning fuqaroligini qabul qilar ekan, bu bilan u Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qoʻyilgan huquq va erkinliklarga ega boʻladi. Shuningdek, u maʼlum burchlarni ham bajarishga majburdir. Tabiiyki, davlat ham fuqarolarning manfaatleri va erkinliklarini oʻz hududida va uning tashqarisida ham himoya qilish majburiyatini oʻz zimmasiga oladi.

Konstitutsiyaning 21-moddasiga va «Fuqarolik toʻgʻrisida»gi qonunning 1-2 moddalariga koʻra Oʻzbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik oʻrnatiladi. Respublikamizning barcha fuqarolari oʻzaro munosabatlarida teng huquqlilik prinsipiga asoslanadilar. Bu konstitutsiyaviy qoida shuni anglatadiki, bunda insonning kelib chiqishidan, shaxsiy, ijtimoiy va mulkiy holatidan, millati, tili, dini, eʼtiqodi, jinsi va yoshidan hamda fuqarolikni olish asosidan qatʼiy nazar barcha fuqarolarning huquqiy mavqei bir xil va teng hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-moddasida «Qoraqalpogʻiston Respublikasining fuqarosi ayni paytda Oʻzbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi», degan qoida mustahkamlangan.

Oʻzbekiston Respublikasi fuqaroligini tasdiqlovchi asosiy hujjat pasport hisoblanadi. Pasport olingunga qadar esa tugʻilganlik toʻgʻrisidagi guvohnoma shaxsning fuqaroligini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosi pasportini berish tartibi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil

26-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasida pasport tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida pasport tizimi to'g'risidagi Nizomi bilan belgilanadi.

Ushbu Nizomga ko'ra O'zbekiston Respublikasining 16 yoshga to'lgan barcha fuqarolariga O'zbekiston Respublikasining fuqarosi pasporti berilishi shart, deb ko'rsatilgan.

Pasport respublika Ichki ishlar idoralari tomonidan beriladi va u fuqaroning doimiy yashash joyida ro'yxatga qo'yiladi. Har bir shaxs o'zini fuqaro sifatida tasdiqlovchi hujjati bo'lgan pasportini avaylab asrashi, pasport tizimi qoidalariga rioya qilish shart. Fuqarolar pasport tizimi qoidalarini buzganlik uchun qonunlarda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

O'zbekistonda fuqarolikka qabul qilish, unga ega bo'lish va fuqarolikni yo'qotish tartibi 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan «Fuqarolik to'g'risida»gi qonunda belgilangan. Ushbu qonunning 12-moddasiga binoan O'zbekiston fuqaroligiga ega bo'lish quyidagi asoslar bo'yicha amalga oshiriladi:

1. O'zbekiston fuqarolaridan tug'ilgan bolalar ular mamlakat hududida yoki chet elda tug'ilgan bo'lsa ham O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi. Agar ota-onalaridan biri O'zbekiston fuqarosi, ikkinchisi chet el fuqarosi bo'lsa, ulardan tug'ilgan bola O'zbekistonda tug'lsa, O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi. Agar shunday ota-onalardan bola chet elda tug'lsa, bunday bolaning fuqaroligi ota-onaning kelishuviga binoan belgilanadi. Fuqarolikka ega bo'lmagan ota-onalardan tug'ilgan bolalar O'zbekistonda tug'lsa, O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi. Ota-onalardan bittasi O'zbekiston fuqarosi, ikkinchisi O'zbekiston fuqarosi bo'lmasa, bola qaerda tug'ilgan bo'lsa ham O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi. Otasi noma'lum, onasi ma'lum bo'lib, bola O'zbekistonda tug'ilgan bo'lsa, u O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi.

2. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'z istaklari bilan O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi mumkin. Buning uchun ular quyidagi shartlarni bajarishlari lozim bo'ladi:

- chet el fuqaroligidan voz kechganda. Bunda chet el fuqarolarini O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror qabul qiladi. Chet el fuqarosi esa o'z fuqaroligini o'zgartirish haqida o'z davlatining munosabatini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishi shart;
- chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston hududida kamida besh yil yashagan bo'lsa, ya'ni so'nggi besh yil davomida O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaganligi va qonuniy yashash manbalari mavjudligini tasdiqlagan bo'lsa;
- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini tan olsa va uning qoidalarini bajarsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan O'zbekiston Respublikasi oldida buyuk xizmatlari yoki fan, texnika va madaniyat sohasida katta yutuqlari bo'lgan, shuningdek O'zbekiston Respublikasini qiziqtiradigan kasb yoxud malakaga ega bo'lgan ayrim shaxslarga nisbatan ushbu moddalarning 1, 2 va 3-bandlaridagi talablar hisobga olinmasligi mumkin. Lekin ular ham albatta, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini tan olishi va uning qoidalarini bajarishi shart.

Agar shaxs:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirishni yoqlab chiqayotgan bo'lsa;
- faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy prinsiplariga zid bo'lgan partiyalar va o'zga tashkilotlarga a'zo bo'lsa;
- O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq jazolanadigan xatti-harakatlari uchun ozodlikdan mahrum etilgan va belgilangan jazoni o'tayotgan bo'lsa, uni O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish to'g'risidagi iltimosnomasi rad etiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolik to'g'risida»gi qonunining 19-21-moddalarida fuqarolikdan chiqish va undan mahrum bo'lish asoslari belgilangan. Unga ko'ra shaxsning iltimosnomasiga asosan O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqarilishi mumkin. Agar shaxs O'zbekiston davlati oldida burchlari

va qarzlari bo'lsa, jinoyat sodir etgan bo'lsa, bunday holda fuqarolikdan chiqishga ruxsat etilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish, fuqarolikni qayta tiklash, fuqarolikdan chiqish va uni yo'qotish masalalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan rasmiylashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan mahrum bo'lish asoslari:

- Vatanga xiyonat qilsa;
- shaxs chet davlatda harbiy xizmatga, xavfsizlik xizmati idoralariga, politsiya, armiya idoralariga yoki davlat hokimiyati va boshqaruvning boshqa idoralariga ishga kirgan bo'lsa;
- agar chet elda doimiy besh yil davomida uzrli sabablarsiz konsullik hisobida turmagan bo'lsa;
- agar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi yolg'on ma'lumotlar yoki soxta hujjatlarni taqdim etish orqali oigan bo'lsa;
- xalqaro shartnomalar asosida va qonunda ko'zda tutilgan boshqa hollarda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori chiqqan kundan boshlab O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi yo'qotiladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risidagi ishlarni O'zbekiston Prezidenti, Ichki va Tashqi ishlar vazirliklari, O'zbekiston Respublikasining chet ellardagi elchixonalari va diplomatik vakolatxonalari yuritish huquqiga egadirlar.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar. Chet el fuqarolari - bu O'zbekiston hududida yashayotgan, boshqa mamlakatlarning fuqaroligiga ega bo'lgan shaxslardir. Ularning O'zbekistonda bo'lishlarining turli sabablari bor. Masalan, ular shartnomalar asosida O'zbekistonda ishlayotgan, o'qiyotgan, chet ellarning diplomatik va konsullik idoralarida ishlayotgan, sayyohlik yo'llanmasi bilan kelgan bo'lishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmagan va o'zining chet davlat fuqarosi ekanligini tasdiqlovchi dalillari – fuqarolik pasporti yoki uning o'rnini bosuvchi boshqa hujjati bo'lgan shaxslar chet el fuqarolari, deb tan olinadi.

Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ta'rifi «Fuqarolik to'g'risida»gi qonunning 11-moddasida berilgan. Unga ko'ra «O'zbekiston Respublikasi hududida yashab turgan holda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan va chet davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlaydigan dalillari bo'lmagan shaxslar fuqaroligi bo'lmagan shaxslar deb hisoblanadi».

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlarida nazarda tutilgan huquq va erkinliklardan, xususan, shaxsiy, mulkiy, oilaviy va boshqa huquqlardan foydalanadilar. Shuningdek, o'zlarini himoya qilishlari uchun sud organlariga murojaat qila oladilar.

Bunday shaxslar O'zbekiston fuqarolari bilan bir xildagi majburiyatlarni ham o'taydilar. Ular O'zbekiston hududida sodir etgan jinoiy, ma'muriy va boshqa huquqbuzarlik ishlari uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan bir xil asosda javob beradilar. Ular O'zbekiston hududida jinoyat qilsalar, O'zbekiston qonunlari bilan javobgarlikka tortiladilar.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ayrim huquqlari cheklab qo'yiladi. Jumladan, ular respublikadagi vakillik organlariga o'tkaziladigan saylovlarda ishtirok eta olmaydilar, deputat bo'lib saylana olmaydilar, umumxalq ovoz berishi (referendum) da qatnasha olmaydilar. Ular O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida, Milliy xavfsizlik xizmati va ichki ishlar idoralarida ishlashlari mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasidagi diplomatik va konsullik vakolatxonalarini, xalqaro tashkilotlar xizmatchilari bo'lgan chet el fuqarolari alohida toifaga mansub bo'lib, ular ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa huquqiy normalarini hurmat qilishi va ularga itoat qilishi zarur. Lekin ular diplomatik va konsullik imtiyozlaridan va daxlsizlik huquqidan foydalanadilar.

5.3. Fuqarolarning huquq va erkinliklarining asosiy turlari. Fuqarolarning huquq va erkinliklari deyilganda O'zbekistonda davlati tomonidan o'rnatilib, Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan, har bir fuqaroga berilgan imtiyozlardan shaxsiy hayotda va jamoat ishlarida qatnashish uchun foydalanish imkoniyati tushuniladi.

O'zbekiston fuqarolarining asosiy huquq va erkinliklari bajarilish sohalari bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi:

- shaxsiy yoki inson huquqlari, ya'ni yashash huquqi, shaxsiy daxlsizlik va turar-joy daxlsizligi kabi huquqlar, erkinliklar va burchlar (Konstitutsiyaning VII bobi, 24-31-moddalari);
- davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish, saylovlarda qatnashish, yig'ilishlar o'tkazish huquqi, vatanni himoya qilish bilan bog'liq qator siyosiy huquqlar, erkinliklar va burchlar (Konstitutsiyaning VIII bobi, 32-35-moddalari);
- mehnat qilish, erkin kasb tanlash, mulkka egalik qilish, ijtimoiy himoyalash huquqlari, ta'lim olish huquqi, ijod erkinligi huquqi, soliq va mahalliy yig'implarni to'lash burchi va shu kabilar iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar, erkinlik va burchlar guruhini tashkil etadi (Konstitutsiyaning IX bobi, 36-42-moddalari).

Aynan xuddi shunday turkumlash asosida milliy qonunchilik tomonidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida huquq, erkinlik va burchlarning tizimi mustahkamlab qo'yilgan.

Inson huquqlari – bu insoniyat tarixiy taraqqiyotining umumiy yutug'idir. Insoniyatga azob-uqubat va kulfatlar keltiruvchi urush ofatlaridan kelgusi avlodlarni xalos etish, inson huquqlarini xalqaro miqyosda himoya qilishni ta'minlash BMT faoliyatining asosiy maqsadiga aylandi. Bu maqsadlar BMTning inson huquqlariga oid xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlarida o'z ifodasini topgan. Bunday hujjatlar: «Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi» (1948-yil 10-dekabr), «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro Pakt», «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro Pakt» hamda so'nggi hujjatga ilova qilingan Fakultativ protokoldan (1966-yil 16-dekabr) iborat bo'lib, ular umumiy nomda «Inson huquqlari to'g'risida xalqaro bill», deb yuritiladi. Xalqaro hamjamiyatning to'la huquqli a'zosi bo'lgan O'zbekistonning Konstitutsiyasi va qonunchiligi ham xalqaro huquqning aynan ushbu hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

BMTning «Bola huquqlari haqida Deklaratsiya» (1959-yil), «Irqiy kamsitishning hamma shakllarini tugatish haqida Konvensiya» (1965-yil) larida inson shaxsi, uning huquq va erkinliklari har bir mamlakatda huquqiy jihatdan kafolatlanishi qayd etilgan. Shuningdek, bu hujjatlarda onalik va bolalikni himoya qilish, bolalarning mehnati, salomatligi, tarbiyasini huquqiy jihatdan himoya qilish, ularning irqiy kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik kabi huquqlar har bir mamlakatda qonun bilan himoyalaniishi zarurligi ta'kidlangan.

BMTning inson huquqlariga oid hujjatlariga imzo chekkan davlatlar insoniyatning butun tarixi maboynida qayd etilgan jamiki huquqlarini tan olishlari va ularga rioya etishlari shart. «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi» davlatlar uchun tavsiya sifatidagi hujjat bo'lib, uning talablari ixtiyoriy ravishda bajariladi. Xalqaro Paktlar va Konvensiyalarning talablari ularga qo'shilgan davlatlar uchun majburiydir.

BMT 1945-yil 26-iyunda AQShda tuzilgan xalqaro tashkilot bo'lib, bugungi kunda unga a'zo davlatlarning soni 190 dan oshib ketdi. O'zbekiston Respublikasi bu nufuzli xalqaro tashkilotga 1992-yil 2-martda a'zo bo'lib kirdi. 1993-yil 24-oktabrda Toshkentda BMTning vakolatxonasi ochildi.

O'zbekiston Respublikasi 1991-yil 30-sentabrda «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi»ni rasmiy tan oldi. Bugungi kungacha O'zbekiston BMTning inson huquqlariga bag'ishlangan 70 dan oshiq hujjatlaridan 35 tasini imzoladi. O'zbekiston Respublikasi Parlamenti 1995-yil 31-avgustda «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro Pakt»ni, «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida Pakt» va unga ilova qilingan Fakultativ protokolni, «Irqiy kamsitishning hamma shakllarini tugatish to'g'risida xalqaro Konvensiya»ni, «Qiynoqlarga solishga va muomalada bo'lish va jazolashning shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi turlariga qarshi Konvensiya»larni (1984-yil 10-dekabr) ratifikatsiya qildi. Ularda qayd etilgan qoidalar respublika qonunchiligida, birinchi navbatda O'zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlangan.

5.4. Shaxsiy huquq va erkinliklar. Shaxsiy huquq va erkinliklar insonning tabiiy, asosiy ajralmas huquqlaridir. Ular insonning tabiiy yashash huquqidan kelib chiqadi va har bir inson tug'ilganidan boshlab unga ega bo'ladi.

Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari tizimida eng muhimi insonning yashash huquqi hisoblanadi. Chunki yashash huquqi ta'minlangandan so'nggina Konstitutsiya, qonunlar va qonun hujjatlarida kafolatlanadigan va himoya qilinadigan huquq va erkinliklar uchun shart-sharoit yaratiladi.

Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining 3-moddasida «Har bir inson yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egadir» deyilgan qoida, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro Paktning 6-moddasida esa, «Har bir insonning yashash huquqi uning ajralmas huquqidir. Bu huquq qonunlar bilan muhofaza etiladi. Hech kim o'zboshimchalik bilan insonni yashash huquqidan mahrum qila olmaydi» deb belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ana shu xalqaro huquqning insonparvarlik qoidalaridan kelib chiqib, insonning yashash huquqini uzviy va ajralmas, deb e'lon qiladi va kafolatlaydi. Insonning yashash huquqi nafaqat Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan, balki uni real ta'minlash mexanizmlari ham ishlab chiqilgan bo'lib, ular bugungi kunda amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, davlatimizda onalik va bolalikni himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni ta'kidlash o'rinlidir. Inson haqida g'amxo'rlik qilish uning dunyoga kelishidan ancha oldin boshlanadi. Buning uchun qator dasturlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda. Ularning bosh maqsadi bolalar o'limining oldini olish, inson ekologiyasini yaxshilash, jismoniy va sog'lom avlodni tarbiyalash uchun ijtimoiy sharoitlarni yaratish, onalik va bolalikning farovon turmushi uchun zarur moddiy va ma'naviy asoslarni yaratishni ko'zlaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi maxsus qismining 26 foizga yaqin me'yorlari fuqarolarning hayotiga ziyon yetkazganlik uchun u yoki bu darajada javobgarlikni ko'zda tutadi. Jinoyat Kodeksining 97-moddasiga ko'ra qasddan odam o'ldirganlik eng og'ir jinoyat hisoblanadi va bunday jinoyat sodir etgan shaxs 15 yildan 20 yilgacha ozodlikdan mahrum etish

yoki o'lim jazosi bilan jazolanar edi. Keyingi yillarda mamlakatimizda jinoiy jazolarni liberallashtirish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar natijasida Jinoyat Kodeksida o'lim jazosi beriladigan moddalar soni ikkitagacha qisqardi va Respublika Prezidentining 2005 yil 1 avgustda chiqarilgan «O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida» gi Farmoniga ko'ra 2008 yilning 1 yanvaridan boshlab o'lim jazosini bekor qilish belgilandi.

Shunday qilib, har qanday demokratik va adolatli davlatda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham insonning yashash huquqi kafolatlangan tabiiy va muqaddas huquqi bo'lib, unga nisbatan har qanday tajovuz eng og'ir jinoyat hisoblanadi.

Insonga qarshi jinoyatlar deb, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi bilan taqiqlangan, ijtimoiy xavfli qilmishlar, ya'ni inson hayotiga, sog'ligiga, shaxsning ozodligi, sha'ni, qadr-qimmatiga, fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan jinoyatlarga aytiladi.

Shaxsga qarshi jinoyatlar O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi bo'yicha quyidagi turlarga bo'lingan:

- hayotga qarshi jinoyatlar;
- sog'liqqa qarshi jinoyatlar;
- hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar;
- nomusga qarshi qaratilgan jinoyatlar;
- oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar;
- shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar;
- fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar.

Konstitutsiyaning 26-moddasida «Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas» degan qoida mustahkamlab qo'ilgan. Ko'rinib turibdiki, Konstitutsiya qiynash, zo'ravonlik, shafqatsizlik yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa turdagi tazyiqqa solishni man etadi.

Qiynoqlarga solish, shafqatsizlik yoki inson qadr-qimmatini tahqirleydigan har qanday harakatga jinoyat qonunchiligida jinoyat sifatida qaraladi. Ular qatoriga hokimiyat yoki mansab vakolat doirasidan chetga chiqish (JK 206-moddasi),

ko'rsatuv berishga majbur qilish (JK 235-moddasi) uchun javobgarlik belgilanganligini misol qilib ko'rsatish mumkin.

«Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalani va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega», deyiladi Konstitutsiyaning 27-moddasida. Bu qoida shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini, shaxsiy huquqlarini qo'riqlash va hurmat qilish, shaxsiy hayot va uy-joy daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan. Sha'n va qadr-qimmat faqat insonga xos bo'lgan sifat bo'lib, u unga tug'ilganidan boshlab ega bo'ladi. Bu huquq shaxsning ajralmas va boshqalarga o'tkazib bo'lmaydigan huquqi hisoblanadi.

Shaxs sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqini e'lon qilinganligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining inson huquqlariga oid xalqaro standartlarga mos kelishini bildiradi. Masalan, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 12-moddasida belgilanganidek, shaxs nomusi va sha'ni daxlsizdir, shuningdek, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro Paktning 17-moddasiga ko'ra «Hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik yoki noqonuniy tarzda aralashish, uning uy-joyi daxlsizligiga o'zboshimchalik yoki noqonuniy tarzda tajovuz qilish va uning or-nomusi va sha'niga tajovuz qilinishi mumkin emas» deyilgan.

Insonning sha'ni va qadr-qimmatini katta ijtimoiy ahamiyatga ega va uning buzilishi qonun tomonidan himoya qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 100-moddasiga binoan, fuqaro o'zining sha'ni, qadr-qimmatiga va obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlar yuzasidan, basharti bunday ma'lumotlarni tarqatgan shaxs ularning haqiqatga to'g'ri kelishini isbotlay olmasa, sud yo'li bilan raddiya talab qilishga haqlidir.

Sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazilgan fuqaro ushbu ma'lumotlarni raddiya qilish bilan bir qatorda, uni tarqatilishi natijasida o'ziga yetkazilgan ziyon va ma'naviy zararni qoplash talabini qo'yishi mumkin.

Qonun fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini qasddan tahqirlash harakatlarini ma'muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat sifatida baholaydi. Bunday hollarda aybdor

tuhmat yoki haqorat qilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Har bir fuqaro o'zining buzilgan huquqlarini sud orqali himoya qilish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'zlarining konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini har tomonlama tajovuzlardan himoya qilish huquqini amalga oshirishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Fuqarolarning sud tomonidan himoyalaniş huquqini O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi 1995-yil 30-avgustda qabul qilingan qonuni ta'minlaydi.

O'zbekiston fuqarolarining muhim shaxsiy huquqlari jumlasiga fikr yuritish, so'z va e'tiqod erkinligi huquqi kiradi. Konstitutsiyaning 29-moddasida «Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega...», deyiladi.

Fikr yuritish – bu insonning o'z bilimi va ishonchiga asoslanib, hayot, jamiyat, davlat hayoti va ijtimoiy-siyosiy muammolarga doir mulohaza va qarashlarini erkin bayon qilish huquqidir. Inson va fuqarolarning bu huquqi Konstitutsiya va O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi 1994-yil 6-mayda qabul qilingan qonuni bilan kafolatlangan. Ushbu qonunda fuqarolarning davlat organlariga, jamoat birlashmalariga, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga murojaat qilish huquqini ifoda etuvchi asosiy qoidalar, fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish tartibi va muddatlari belgilangan.

So'z erkinligi – qonun hujjatlarining ko'rib chiqilishida, referendum o'tkazilayotganda, Oliy Majlis va mahalliy hokimiyat organlariga o'tkazilayotgan saylovlarda, o'zini o'zi boshqarish organlari ishida ishtirok etishga imkon beradi. Fikr va e'tiqod erkinligi so'z erkinligi orqali amalga oshiriladi. So'z erkinligi deganda o'z fikrini ochiq so'zlash va boshqa shaxslarning e'tiboriga yetkazmoq tushuniladi. Ko'p hollarda so'z erkinligi ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladi va ular har bir fuqaroning so'z erkinligini, ommaviy axborot vositalarida chiqish huquqini, o'z fikr va e'tirozlarini ochiq so'zlashni kafolatlaydigan

«Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni asosida faoliyat ko'rsatadilar.

Fikrlash va so'zlash erkinligi qonunda ko'rsatilgan hollarda davlat yoki boshqa ijtimoiy manfaatlarni himoya qilish nuqtai nazaridan cheklanishi mumkin. Masalan, davlat sirlarini ovoza qilish davlatning iqtisodiy va siyosiy mustaqilligiga, mudofaa qudratiga, davlat va jamiyatning boshqa manfaatlariga putur yetkazishi mumkinligini e'tiborga olib shunday cheklashlar belgilanadi. Jumladan, 1993-yil 7-mayda qabul qilingan «Davlat sirlarini saqlash to'g'risida»gi qonunda davlat tomonidan qo'riqlanadigan va maxsus ro'yxatlar bilan chegaralab qo'yiladigan harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar davlat sirlari deb ko'rsatilgan bo'lib, ular haqida ma'lumotlar to'plash va tarqatish taqiqlanadi.

Konstitutsiyaning 31-moddasida kafolatlangan vijdon erkinligi insonning dinga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Mustaqillik yillarida ma'naviy qadriyat sifatida dinga bo'lgan munosabat o'zgardi. Barcha fuqarolar haqiqiy vijdon erkinligini his eta boshladi. Davlat bilan diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar 1998-yil 1-mayda qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi (yangi tahrirdagi) O'zbekiston Respublikasining qonuni bilan tartibga solinadi.

Ushbu qonun vijdon erkinligi bilan bog'liq inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro Paktlar va shartnomalarning asosiy me'yor va talablarini hisobga olib, vijdon erkinligining konstitutsiyaviy shaklda amalga oshirilishining tartib va prinsiplarini belgilaydi. Qonunga asosan diniy qarashlarni majburan singdirilishiga yo'l qo'yilmaydi. Din – fuqaroning shaxsiy ishidir.

Bugungi kunda O'zbekistonda turli din vakillarining hech qanday to'siqlarsiz o'z dinlariga e'tiqod qilishlari uchun sharoit yaratilgan. Agar sobiq sho'ro tuzumi davrida respublikamizda 89 ta masjid va ikkita madrasa mavjud bo'lgan bo'lsa, hozir O'zbekistonda 1700 dan ortiq masjid, 10 madrasa faoliyat ko'rsatmoqda. Qashqadaryo viloyatining Kitob shahrida bitta madrasa ishlab turibdi. Shuningdek, mamlakatimizda yashayotgan turli millat vakillari ham o'zlari e'tiqod qilayotgan dinlariga ibodat qilib kelmoqdalar. Bugun O'zbekistonda 17 ta diniy konfessiya (tashkilot) faoliyat ko'rsatmoqda. Respublikamizda to'rtta diniy markaz –

Movarounnahr Musulmonlari idorasi, O'rta Osiyo Rus pravoslav cherkovi boshqarmasi, O'rta Osiyo Injil Nasroniylar – Baptistlar markazi va O'rta Osiyo Yettinchi kun Adventistlari Cherkovi konfessiyalari faoliyat ko'rsatib kelmoqdalar.

Toshkent shahrida Imom Buxoriy nomidagi Islom instituti ishlab turibdi. 1999-yil 7-aprelda O'zbekiston Prezidentining Farmoyishiga asosan Toshkent Islom universiteti tashkil etildi. Har yili universitetning xalqaro iqtisodiyot, islom fikrhunosligi, dinshunoslik, islom tarixi va falsafasi fakultetlariga talabalar qabul qiladi. Universitet qoshida islom tadqiqotlar markazi, manbalar xazinasi hamda akademik litsey faoliyat ko'rsatmoqda. Bu xalqimizning vijdon erkinligi huquqining kafolatlanganligi, bu sohada erishayotgan yutuqlarimizning asosi Konstitutsiyamiz va qonunlarimizning insonparvarlik, demokratik prinsiplarga asoslanganligidandir.

Ana shunday sharoitda O'zbekistonga din niqobi ostida g'arazli maqsadlar bilan siyosiy hokimiyatni egallashga intilayotgan ayrim kuchlar kirib kelishga intilmoqdalar. Ular turli firqalar, tashkilotlar («Islom uyg'onishi partiyasi», «Akromiylar partiyasi», «Hizbulloh», «Hizbut tahrir al islomiy» va boshqalar) tuzib, mavjud konstitutsiyaviy tuzumni ag'darib tashlab yaxlit jo'g'rofiy makonda xalifalikni qayta tiklashga urinmoqdalar.

Konstitutsiyamizning 57-moddasida konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarini tuzish taqiqlanadi, deyilgan. Bundan shunday xulosa chiqadiki, mamlakatimizdagi tinchlik va osoyishtalikni ko'rolmayotgan, yoshlarimizni endigina shakllanayotgan pok, beg'ubor ongini buzishga intilayotgan turli ekstremistik oqimlarning g'oyalari Konstitutsiya va qonunlarimizga ziddir.

Diniy ekstremizm – ma'lum siyosiy maqsadlar yo'lida va din niqobi ostida mutaassiblar yoki ularning irodasiga ko'ra ish tutuvchi guruhlar tomonidan olib boriladigan harakat va qarashlar majmuini anglatadi.

Diniy aqidaparastlik esa – siyosiy maqsadlar yo'lida mavjud ijtimoiy muammolarni ilk, ya'ni islom paydo bo'lgan paytdagi arkonlar asosida hal etish niyatidagi harakat va qarashlardan iborat.

Vahobiylar hokimiyatni qo'lga olishda ochiq kurashning ekstremistik va terror yo'lini tutsalar, «xizbutchilar» g'oyaviy, mafkuraviy kurash yulini qo'llaydilar, ular yoshlar tarbiyasidagi g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, ularning ongini zaharlashga urinadilar.

5.5. Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar. Siyosiy huquqlar – bu fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etishlaridir. Fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi demokratik huquqiy davlatning muhim belgisi hisoblanadi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining VIII bobida fuqarolarning bunday siyosiy ahamiyatga molik huquqi alohida mustahkamlangan. «O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi», deyiladi Konstitutsiyaning 32-moddasida.

Konstitutsiyaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqarolari vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga hamda davlat hokimiyatining vakillik organlariga saylovlar umumiy, teng, yashirin ovoz berish va bevosita saylov huquqi asosida erkin amalga oshiriladi. 18 yoshga yetgan O'zbekiston fuqarolari saylash huquqiga egadirlar.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari passiv saylov huquqiga ham ega bo'lib, bu vakillik organlariga saylanish huquqidir. Saylov kuniga qadar 25 yoshga yetgan har bir fuqaro Oliy vakillik organi – Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga, 21 yoshdan mahalliy vakillik organlariga deputat etib saylanishi mumkin. Shuningdek, 35 yoshga yetgan, davlat tilida erkin so'zlasha oladigan, bevosita

saylovgacha 10 yildan kam bo'lmagan muddatda respublika hududida muqim yashagan fuqaro O'zbekiston Respubikasi Prezidenti etib saylanishi mumkin.

Fuqarolarning yana bir siyosiy huquqlaridan biri - bu o'z ijtimoiy faolliklarini mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshirish huquqidir.

Miting – bu siyosiy masalalarning muhokamasi uchun yig'ilgan jamoa yig'ilishidir. Yig'ilish – bu yopiq binolarda yoki biror xonada o'tkaziladigan, ma'lum bir guruhdagi kishilarning majlisidir.

Namoyish – bu ijtimoiy-siyosiy norozilikning ochiq ko'rinishi bo'lib, namoyishchilarning u yoki bu masalaga nisbatan ommaviy tarzda ochiq munosabatidir.

Davlat fuqarolarning bu huquqlarini ta'minlagan holda ularga bino, maydon va ko'chalar, shuningdek televideniye, radio va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish uchun sharoit yaratadi.

Hokimiyat organlari miting, yig'ilish va namoyishlar o'tkaziladigan joylarni ajratadilar va ularni boshdan oxirigacha nazorat qilib boradilar.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktning 32-moddasida belgilanishicha, tinch yig'ilishlar davlat va jamiyat, ommaviy tartib, aholi sog'ligi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ko'zlab cheklanishi mumkin. Shuningdek, O'zbekiston Konstitutsiyasining 33-moddasida miting, yig'ilish va namoyishlar o'tkazish jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash maqsadlarida cheklanishi mumkinligi ko'rsatilgan. Amaldagi qonunchilikda yig'ilish, miting va namoyishlar o'tkazish tartibini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan.

O'zbekiston fuqarolari jamoat birlashmalari va siyosiy partiyalarga, kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga birlashish huquqi ommaning ma'lum bir maqsadlarni amalga oshirish va siyosiy faoliyatini rivojlantirishni ko'zlaydi. Fuqarolar siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalariga birlashib, davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etadilar.

Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas.

Davlat fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlaydi va ularga jamiyat hayotida ishtirok etishlari uchun teng sharoit yaratib beradi. Davlat qonun orqali siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalarining faoliyati, ularni moliyalashtirish, ro'yxatdan o'tkazish, boshqa davlat organlari bilan bo'ladigan munosabatlarni tartibga soladi. Jamoat birlashmalari o'z ichki tuzilishi va faoliyatini shakllantirish masalalarini mustaqil hal qiladilar.

Bugungi kunda O'zbekistonda to'rt mingdan ziyod jamoat birlashmalari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Jamoat birlashmalari tizimida siyosiy partiyalar muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda beshta siyosiy partiya, ikkita ijtimoiy harakat mavjud. Jumladan, O'zbekiston Xalq Demokratik partiyasi – mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan yirik siyosiy partiyalardan biri hisoblanadi. Bu partiya 1991-yil 1-noyabrda bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida tashkil etildi, unda partiyaning Dasturi va Nizomi qabul qilindi.

Partiya o'z dasturini ishlab chiqib jamiyatga taqdim etish va o'zga ijtimoiy-siyosiy kuchlar bilan erkin musobaqalashish orqali rahnamolikka erishmoqchi. U qonunga muvofiq ravishda o'z nomzodlarini hokimiyat organlariga saylovlarda ko'rsatadi va ularning qo'llab-quvvatlanishini va saylanishini ta'minlaydi. Partiya o'zining siyosiy yo'lini davlat hokimiyati va o'zini o'zi boshqarish organlariga saylangan partiya a'zolari orqali o'tkazadi.

«O'zbekiston ovozi», «Golos Uzbekistana» gazetalari va «Muloqot» jurnali partiyaning markaziy nashrlari hisoblanadi.

O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi 1995-yil 18-fevralda bo'lib o'tgan qurultoyda tashkil topdi. Partiya o'z nizomiga binoan, dasturiy maqsad va vazifalarini amalga oshirishda jamoatchilikka tayanib ish ko'radi. Ular joylarda turli-tuman shakldagi klublar, markazlar, seminarlar, ishchi guruhlarini tashkil etib,

ularning ishiga partiyaga a‘zo bo‘lmagan fuqarolarni jalb etish huquqlariga ham egadir. Ular partiya tashkilotlari hisoblanmaydilar. Ammo ular partiya tadbirlarini, g‘oyalarini muhokama qilib, o‘z fikr va mulohazalarini bildirish orqali yordam beradilar.

Partiyaning matbuot nashri «Adolat» ijtimoiy-siyosiy haftalik gazetasidir.

O‘zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi (MTDP) 1995-yil 3-iyundagi ta‘sis qurultoyida tashkil topgan. Millatning ma‘naviy birligi, Vatan (Turkiston) yagona oila, kuchli demokratik davlat, milliy qadriyatlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va umumjahoniy integratsiya, zamon kishisi, milliy istiqbol - partiya mana shu yo‘nalishlar milliy tiklanishimizning mazmun-mohiyatini tashkil etadi deb hisoblaydi.

Partiyaning matbuot nashri «Milliy tiklanish» haftalik gazetasidir.

O‘zbekiston Fidokorlar milliy demokratik partiyasi (FMDP) 1998-yil dekabr oyida bo‘lib o‘tgan ta‘sis qurultoyida tashkil topdi.

O‘zbekiston Fidokorlar milliy demokratik partiyasi milliy g‘urur, fidoyilik hamda milliy manfaatlar ustuvorligi g‘oyasini ilgari suradi, Vatan ravnaqi yo‘lida jamiyatdagi barcha fidoyi insonlar va sog‘lom fikrlovchi kishilar kuch-qudratini, s‘ay-harakatini birlashtirishga xizmat qiladi. Partiya mamlakat tabiiy-iqtisodiy, intellektual boyliklarini milliy manfaat yo‘lida xizmat qildirish, kelajak avlodlarga munosib meros qilib qoldirishni o‘z burchi deb biladi. Mulkchilikning barcha shakllari muhofazasi va mulkdorlar daxlsizligini ta‘minlashni o‘zining asosiy maqsadi deb biladi va bu maqsadga erishishda o‘rta va kichik mulkdorlarga suyanadi. «Fidokor»lar partiyasi ma‘naviyatni jamiyatning vijdoni, komil inson va shaxs tarbiyasini eng asosiy ijtimoiy vazifasi deb biladi, fikrlar, g‘oyalar, qarashlar, intilishlar xilma-xilligini tan oladi. «G‘oyaga qarshi faqat g‘oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma‘rifat» bilan kurashish tamoyiliga amal qiladi.

«Fidokor» haftalik gazetasi – partiyaning nashri hisoblanadi.

Tajbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi 2003-yil sentabrda tashkil etildi.

O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi umummilliy siyosiy tashkilot sifatida, mulkdorlar qatlami, kichik biznes, fermerlik va dehqon xo'jaliklari vakillari, ishlab chiqarishning yuqori malakali mutaxassislari va boshqaruv xodimlari, ishbilarmonlar manfaatlarini ifodalaydi va himoya qiladi.

Tajbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining asosiy maqsadi tadbirkor va ishbilarmonlarning yanada kengroq faoliyat yuritishlari uchun yangi imkoniyatlar ochish, ularning istiqbolini ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslab berish, davlat boshqaruvi, jamiyatda shakllanayotgan qarashlarga ta'sir o'tkazish, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi ishtirokini ta'minlash, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti bilan bog'liq muammolarni hal qilish, O'zbekistonning xalqaro obro'yini oshirishda, yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlashda, millatlararo va fuqarolararo ahillik va totuvlikni mustahkamlash ishida faol qatnashish, yoshlarimizni Vatanga muhabbat va sadoqat, o'z elim, o'z yurtim deya g'ururlanib yashash ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shish partiyaning dasturiy maqsadlari hisoblanadi.

Partiyaning «XXI asr» haftalik gazetasi bor.

Mamlakatda «Xalq birligi» harakati 1995-yil iyundan boshlab faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Harakatning vazifasi ko'p millatli mamlakatda xalqlar birligini yanada mustahkamlash, fuqarolarda vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishdan iborat. Bundan tashqari «Xalq birligi» harakatining «Birlik» va «Yedinstvo» haftalik gazetaları bor. Respublikamizda kasaba uyushmalari, xotin-qizlar qo'mitalari va «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati kabi jamoat birlashmalari ham faoliyat olib boradi.

Konstitutsiya fuqarolarga siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalariga birlashish huquqini Konstitutsiya va qonunlarga zid kelmagan holatlarda amalga oshirishlari mumkinligini belgilaydi.

Tinch muxolifatning mavjudligi – barcha demokratik jamiyatga xos jihat hisoblanadi.

Fuqarolarning ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqi siyosiy ahamiyatga ega bo'lib, ular shu yo'l bilan ham davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda faol ishtirok etadilar. Shu sababli O'zbekiston Konstitutsiyasi bu huquqni maxsus kafolatlaydi.

“Har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega, - deyiladi Konstitutsiyaning 35-moddasida.

Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi shart”.

Ana shu tarzda fuqarolarning vakolatli davlat organlariga va xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyat bilan murojaat etishi – bu ularning davlat va jamiyat boshqaruvida qatnashishining amaliy shaklidir. Bu huquqning mohiyati shundaki, ariza, taklif, shikoyatlarda tashkilot, muassasalar faoliyatini yaxshilash bilan bir qatorda, ularning faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari ham taklif etilishi mumkin. Bu esa fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda qatnashishining eng samarali shaklidir. Ariza, taklif va shikoyatlar yozma shaklda hamda xalq vakillari va mansabdor shaxslarning qabulida og'zaki ham bo'lishi mumkin. Shuningdek ariza, taklif va shikoyat gazeta, radio va televideniye orqali murojaat etish bilan ifodalanishi mumkin.

Bu huquq birinchi o'rinda boshqaruv madaniyati darajasi, vakolatli davlat organlaridagi xodimlarning ongi va mas'uliyatiga bog'liq.

Fuqarolarning ariza, taklif va shikoyatlari faktlarni yashirishni ko'zlamasligi hamda yolg'on axborotlardan iborat bo'lmasligi kerak. Aks holda bunday harakatlar uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida maxsus javobgarliklar ko'zda tutilgan.

5.6. O'zbekistonda inson huquqlarining konstitutsiyaviy kafolatlari.

Demokratik fuqarolik jamiyatini ko'rishni maqsad qilib qo'ygan har qanday davlatning demokratlashuviga xos xususiyatlaridan biri – bu inson huquq va erkinliklarining qonunlarda to'liq begilanishi hamda ularning ta'minlanishi uchun shart-sharoitlarni yaratilishi bilan belgilanadi. O'zbekistonda huquqiy demokratik

davlatni ko'rishdan asosiy maqsad – mamlakatimizda yashovchi har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini to'la ta'minlashdan iboratdir. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, inson huquq va erkinliklarini Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlanishi muhim ahamiyatga egadir, ammo ularni amalga oshirishning kafolatlangan, himoyalangan imkoniyatlari bo'lmasa, ular quruq gapligicha qolib ketaveradi. Bunga yorqin misol totalitarizm hukmronlik qilgan sobiq Ittifoq qonunlarida ham fuqarolarning ko'plab huquq va erkinliklari juda chiroyli so'zlar bilan yozib qo'yilgan edi. Biroq ular hayotda amalga oshmadi. Chunki kommunistik mafkura ko'p jihatdan sinflar va davlat to'g'risida ko'proq qayg'urar, insonni o'ylamas edi.

O'z istiqlol va erkin taraqqiyot yo'lini tanlab olgan O'zbekistonda qisqa muddat ichida insonning huquq va erkinliklarini to'la amalga oshirish yo'lida muhim ishlar qilindi. Inson manfaatlarini ta'minlash davlatimizning eng ustuvor vazifalaridan biriga aylandi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida insonning huquq va erkinliklari to'g'risida 100 dan ortiq qonunlar, 200 dan ortiq qonun osti aktlari qabul qilindi. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish Konstitutsiyaning bosh g'oyasiga aylandi.

Inson huquq va erkinliklarining kafolatlari deganda shaxsning Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklarini amalda haqiqiy bajarish uchun zarur sharoit va imkoniyatlarni yaratish tushuniladi.

Kafolat, kafolatlash – bu Konstitutsiya va qonunlarda ko'rsatilgan imkoniyatlarni hayotda amalga oshirish, huquq va erkinliklarga ega bo'lish demakdir. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash Konstitutsiyada ko'rsatilgan huquq va erkinliklarga egalik qilish bilangina cheklanib qolmasdan, ulardan to'liq foydalanish va ularni har qanday noqonuniy buzilishdan muhofaza qilish hamdir.

Konstitutsiyamizning mohiyati insonga munosib hayot sharoitlarini yaratish, uni baxtli qilishdan iborat. U jamiyat va uning a'zolari oldiga buyuk maqsadlar qo'yadi. Ana shu ezgu maqsadga erishishning yo'llarini o'zida mujassam etadi.

Konstitutsiyaning asosiy huquqiy hujjat sifatidagi qimmatini shundaki, u jamiyat aʼzolarining tengligini qayd etadi, unga kafolatlar beradi. Huquqiy kafolatning mohiyati davlat, uning organlari va mansabdor shaxslar fuqarolarning huquqlarini va erkinliklarini amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratish, doimiy ravishda zarur vositalar bilan taʼminlanishda ifodalangan burchida namoyon boʻladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolarga maʼlum huquq va erkinliklarini mustahkamlab berish bilan birga ularni toʻliq amalga oshirish uchun iqtisodiy, siyosiy va huquqiy kafolatlar bilan taʼminlaydi. Iqtisodiy sohadagi kafolatlar shundan iboratki, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida koʻrsatilgan va jamiyatning iqtisodiy negizini tashkil etuvchi mulk shakllarining xilma-xilligidir. Hamda barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan barobar muhofaza qilinishini kafolatlaydi.

Siyosiy huquq va erkinliklarning kafolatlanganligi shundan iboratki, Konstitutsiyaga binoan xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai ekanligi, davlat hokimiyati tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga boʻlinish prinsipiga asoslanganligi, Oʻzbekistonda ijtimoiy hayotning siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida oʻrnatilishi mumkin emasligidir.

5.7. Fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlari. Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi nafaqat fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklarini, balki ularning burchlarini ham belgilaydi. Fuqarolarning burchlari Konstitutsiyaning 47-52-moddalarida belgilab qoʻyilgan. Konstitutsiyaga binoan fuqarolar va davlat bir-biriga nisbatan boʻlgan huquqlari va burchlari bilan oʻzaro bogʻliqdir. Har bir fuqaro qonun oldida tengdir va boshqa fuqarolarning millati, tili, dini va eʼtiqodini hurmat qilishi shart. Fuqaro oʻz huquq va erkinliklaridan foydalanganida, uning harakatlari boshqa shaxs, davlat va jamiyat manfaatlariga ziyon yetkazmasligi lozim.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida bajarilishi shart boʻlgan majburiyatlardan va burchlar aniq koʻrsatilgan. Bu talablarning oʻz vaqtida, aniq va vijdonan bajarilishi Vatanimiz tinchligi, fuqarolar totuvligi, mamlakatimiz

osoyishtaligi uchun zarurdir. Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarning bajarilishi O'zbekistonda qonuniylik va huquqiy tartiblarni ta'minlash imonini beradi.

O'zbekiston hududida yashayotgan har bir fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarga rioya etib yashashi Vatanimiz ravnaqini belgilaydi, uning istiqboliga xizmat qiladi. Demokratik jamiyat ko'rish uchun, demokratik tamoyillarni to'la qaror toptirish uchun, eng avvalo shu mu'tabar zaminda tavallud va tarbiya topgan shaxs, o'zini aynan shu yurt farzandi deb biluvchi inson o'z davlati, o'z xalqi oldidagi, uni katta umidlar bilan tarbiya qilgan, voyaga yetkazgan jamiyat oldidagi burchini ado etishi kerak. Har qaysi fuqaro, har birimiz: «Shu davlat, shu jamiyat menga nima berdi?» deb emas, balki «Men o'zim Vatanimga, elu yurtimga nima berdim?» - deb o'ylashimiz va shu aqida bilan yashashimiz kerak. Ana shunda biz o'z burchimizni ado etgan bo'lamiz.

Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilgan burchlarni bajarish fuqarolarni davlatimizning Konstitutsiya va qonunlariga nisbatan bo'lgan hurmatini ifodalaydi. Bu konstitutsiyaviy talabni bajarish mamlakatimizda qonuniylik tartibini belgilaydi.

Qonuniylik – bu davlatda va jamiyatda mustahkam huquqiy tartibning, barqaror tinchlik va osoyishtalikning asosidir. Konstitutsiya va qonunlarga rioya etib yashash burchi oddiy fuqarodan tortib Prezidentgacha bo'lgan umumiy talabdir. Buning ma'nosi shuki, har bir fuqaro o'zining hayotiy faoliyatida Konstitutsiya va qonunlarga rioya etib yashash e'tiqodiga ega bo'lishi lozim.

Konstitutsiya va qonunlarda jamiyat va davlatning ijtimoiy-siyosiy asoslari, mamlakatdagi huquqiy tartibot, ijtimoiy munosabatlar tizimi o'z ifodasini topgan. Shu sabali Konstitutsiya va qonunlarga har bir fuqaro qat'iy rioya etishga majburdir. Bu qoidalarni buzish fuqarolarning o'ziga, davlatga, jamiyatga katta zarar yetkazadi.

Tarixiy, ma'naviy va madaniy merosni asrab-avaylash. «Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar.

Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir», - deyiladi Konstitutsiyaning 49-moddasida. Darhaqiqat, O'zbekiston xalqining tarixiy, madaniy va ma'naviy boyliklarini, madaniy yodgorliklarini ehtiyot qilish va saqlash har bir fuqaroning burchidir.

Arxitektura yodgorliklari, tarixiy-madaniy hudud va ob'ektlar, badiiy va musiqiy asarlar, xalq og'zaki ijodiyoti O'zbekiston xalqining o'zligini anglashiga xizmat qiladi hamda dunyo madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan hissasini bildiradi. Qadimdan qolgan yodgorliklarni nafaqat saqlash, balki kelajak avlodlarga yetkazib, yangilarini yaratish ham lozim. Tarixiy yodgorliklarni saqlash va qayta ta'mirlashimiz lozim, chunki ular o'zbek xalqi tomondan yaratilgan milliy boyligimiz bo'lib, ma'naviy merosimizning ulkan qismidir. Demak biz uni ko'z qorachig'idek saqlab, kelajak avlodlarga asrab yetkazmog'imiz zarur.

Xalqimiz o'zi yaratgan tarixiy, ma'naviy, madaniy boyliklarini to'la saqlash va asrash imkoniyatiga ayrim davrlarda ega bo'lmagan. Ayniqsa, sobiq sho'rolar davrida xalqimizning juda ko'p tarixiy, ma'naviy va madaniy boyliklari talon-taroj qilingan, xorijiy davlatlarga olib ketilgan, o'zaro va talonchilik urushlarida yakson qilingan. Asrlar bo'yi shakllangan o'zbek davlatchiligi, huquqiy madaniy meros namunalari sobiq sho'rolar davrida e'tiborsiz qoldirilgan.

Bugungi kunda xorijiy davlatlarga olib ketilgan xalqimizning bebaho boyliklarini qaytarish masalalari bilan maxsus komissiya shug'ullanmoqda.

O'zbekistonning har bir fuqarosi xalqimizning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini asrash va uni kelgusi avlodlarga yetkazib berishni o'zi uchun asosiy vazifa deb bilishi muhimdir.

O'zbekiston Respublikasining «Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi kodeksining 64-moddasida tarixiy-madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan. Shuningdek tarixiy yodgorliklarni saqlash borasida fuqarolik va jinoiy-huquqiy qonunlarda ham muhim normalar belgilangan.

Atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish. Konstitutsiyaning 50-moddasida mustahkamlangan «Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona

munosabatda bo'lishga majburdirlar», degan qoida 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan va 1995-yil 6-mayda qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunida ham belgilab qo'yilgan. Inson tabiatning eng muqaddas boyligidir. Inson salomatligi, uning taqdiri, hayoti uchun tabiiy muhit nihoyatda zarurdir. Shu sababli bu muqaddas burchni bajarish har bir fuqarodan aql, zakovat va tabiatga mehr-muruvvat talab qiladi. Tabiiy muhit qanchalik sog'lom bo'lsa, insonlar, ayniqsa yoshlar jismonan sog'lom, baquvvat, kuchli, shijoatli bo'lib kamol topadi.

Fan va texnika taraqqiyoti avj olgan bugungi kunda insoniyatning hayot kechirish maskani bo'lmish ona yerimiz va undagi tabiiy muhit alohida muhofazaga muhtoj. Atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, uni asrash bugun nihoyatda dolzarb masala. Shuning uchun xalqaro «Ekosan», «Orolni qutqarish» jamoat birlashmalari tashkil etildi. Har bir fuqaro o'zi yoki mana shu jamoat tashkilotlarining faoliyatida faol qatnashib, o'zining konstitutsiyaviy burchini ado etishi zarur.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida», «Yer to'g'risida», «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida», «Davlat sanitariya nazorati to'g'risida», «Alohida muhofaza qilinadigan hududlar to'g'risida», «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi muhim qonunlar qabul qilindi. Mazkur qonunlar fuqarolarning atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha majburiyatlarini belgilaydi. Tabiatga oid qonunlarda belgilangan burchlarni bajarish, ularning buzilishini oldini olish har bir fuqaroning muqaddas burchidir.

Soliq va mahalliy yig'implarni to'lash burchi. Fuqarolarning Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlaridan yana biri – bu ularning qonun bilan belgilab qo'yilgan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lash majburiyatidir. Soliqlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va davlat hokimiyatining mahalliy organlari tomonidan belgilanib, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari mahalliy yig'im va to'lovlarni to'lashga majburdirlar. Bu 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan va xorijiy fuqarolardan olinadigan daromad solig'i to'g'risida»gi, 1993-yil 7-mayda qabul qilingan «Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida»gi qonun hamda boshqa hujjatlar va aktlar orqali tartibga solinadi.

Soliq to'lashdan bosh tortgan shaxslar tegishli ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Vatanni himoya qilish va harbiy xizmatni o'tash fuqarolarning muqaddas burchi. Vatanni himoya qilish – har bir fuqaroning burchidir. «O'zbekiston Respublikasini himoya qilish – O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar», deyiladi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasida. Vatanni himoya qilish burchining mazmunini O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini himoya qilish, uning hududiy yaxlitligini himoya qilish, respublikaning barcha sohalar bo'yicha manfaatlarini qo'riqlash, O'zbekiston aholisining tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash, xavfsiz va farovon hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan siyosiy, iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish kabi talablarni o'z ichiga oladi.

Vatanni himoya qilishdan maqsad O'zbekiston Respublikasiga qarshi chetdan qilinadigan hujumning oldini olish va har qanday tajovuz qilingan sharoitda qurolli kuchlar yordamida himoya qilishni amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni yaratishdir, chunki atrofimizdagi notinch dunyoda do'stlarimiz bor, lekin O'zbekistonni o'z ta'sir doirasiga kiritishni xohlaydiganlar ham yo'q emas. Buning uchun ular barcha nayranglardan, qolaversa harbiy kuchdan ham foydalanishlari mumkin. Shu sabali O'zbekistonning yaxshi tayyorlangan va qurollangan, istiqbolimiz va chegaralarimizni himoya qilishga qodir armiyasi bo'lish kerak.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 3-iyulda bo'lib o'tgan 12-chaqiriq 10-sessiyasi mamlakat Qurolli Kuchlarini tuzishda muhim voqea bo'ldi. Sessiyada «Mudofaa to'g'risida», «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat

to'g'risida» va «Muqobil xizmat to'g'risida»gi qonunlar, shuningdek harbiy qasamyodning yangi matni va qasamyod qildirish tartibi qabul qilindi.

«Mudofaa to'g'risida»gi qonuni O'zbekiston Respublikasi mudofaasi asoslarini, mudofaani tashkil etish qoidalarini, mudofaa to'g'risidagi qonunlarni, mudofaa bo'yicha Oliy Majlis va respublika Prezidentining, mudofaa bo'yicha vazirlik va idoralarning mahalliy hokimiyat va ijroiya organlarining vakolatlarini, Qurolli Kuchlarni tashkil etish va saqlash haqidagi, umumiy safarbarlik e'lon qilish qoidalarini, fuqarolar va mansabdor shaxslarning mudofaa to'g'risidagi qonunlarni bajarmaganlik uchun javobgarlik tartiblarini belgilab beradi.

«Mudofaa to'g'risida»gi qonunning 11-moddasida belgilanganidek, «O'zbekiston Respublikasining hududiy yaxlitligini, mustaqilligini himoya qilish respublika fuqarolarning konstitutsiyaviy burchi hisoblanadi. Boshqa davlatlarning O'zbekistonda doimiy yoki vaqtincha yashab turgan fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasida harbiy xizmatga yoki harbiy tayyorgarlikka jalb qilinmaydi.

Shuningdek, diniy e'tiqodi qurol ishlatishga va Qurolli Kuchlarda xizmat qilishga yo'l qo'ymaydigan, ro'yxatdan o'tgan diniy tashkilotlarning a'zosi bo'lgan fuqarolar muqobil xizmatni o'tash huquqiga ega bo'ladilar. Muqobil xizmatni o'taydigan shaxslar muqobil xizmat xizmatchilari deb yuritiladi.

Harbiy xizmatni o'tash burchini buzgan fuqarolarga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining XXI, XXII, XXIII boblarida ko'rsatilgan ayblov bo'yicha jinoiy javobgarlik belgilanadi.

Vatan himoyasini ta'minlashda Qurolli Kuchlarning o'rni muhimdir. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining vujudga kelishida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 14-yanvardagi qarori katta ahamiyat ega bo'ldi. Ushbu qarorga ko'ra mamlakat hududida joylashgan sobiq Ittifoq qurolli kuchlarining barcha qismlari, qo'shilmalari, harbiy o'quv yurtlari, muassasa va tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi tasarrufiga olindi va ular moddiy-texnika va mablag' bilan ta'minlanadigan bo'ldi. Shu tarzda mustaqil mamlakatimiz Qurolli Kuchlarini barpo etishning dastlabki tashkiliy davri yakunlandi. 1993-yil 29-

dekabrdagi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq 14-yanvar - Vatan himoyachilari kuni deb e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining huquqiy asosini yaratishdagi birinchi bosqichning yakunlanishi 1992-yil 8-dekabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi 12-chaqiriq Oliy Kengashining 11-sessiyasiga to'g'ri keldi. Bu sessiyada davlatimizning Asosiy Qonuni – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiyaning 26-bobi mudofaa va xavfsizlik masalalariga bag'ishlangan. Konstitutsiyaning 125-moddasida «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi. Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanadi», deyilgan. Shuningdek shu bobning 126-moddasida «O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlarga ega», deb ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari – bu harbiy tuzilmalar, harbiy o'quv yurtlari va boshqa harbiy qismlardan iborat, davlat tomonidan tashkil qilingan va ta'minlangan bo'lib, u urush va harbiy mojarollarning oldini olish, O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini, hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayot kechirishini va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgandir.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari davlatni himoya qilishda butun mudofaa tizimining asosini tashkil etuvchi yadro hisoblanib, o'z tarkibiga Quruqlikdagi qushinlar, harbiy-havo va havo hujumidan mudofaa qushinlari, Maxsus qushinlar, Milliy gvardiya qushinlari, Milliy gvardiya brigadasi, Chegara va ichki qo'shinlar, Milliy xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqa vazirliklarga, idoralarga qarashli harbiy qismlarni oladi.

Quruqlikdagi qo'shinlar Qurolli Kuchlarning eng ko'p sonli turi bo'lib, boshqa qo'shin turlarining birgalikdagi harakati bilan tajovuzni qaytarish, zarur bo'lganda esa dushmanni tor-mor qilishga mo'ljallangan.

Harbiy havo va havo hujumidan mudofaa qushinlari Qurolli Kuchlarning manyovrli turlaridan biri sanaladi. Ular quruqlikdagi jang maydonida bo'layotgan

yirik operatsiyalarning borishi va yakuniga taʼsir qilish, mamlakat havo chegaralarini qoʻriqlash, quruqlikdagi va havodagi dushmanga zarba berish imkoniyatiga ega. Undan tashqari, bu qoʻshin turiga Oʻzbekiston Respublikasining hududini, uning havo chegaralarini, eng muhim davlat va sanoat obʼektlarini hamda qoʻshin guruhlarini havo hujumidan ishonchli mudofaa qilish vazifasi yuklatilgan.

Milliy gvardiya Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tarkibiy qismidir. Uning asosiy vazifasi – Oʻzbekiston Respublikasining davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligi hamda fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini muhofaza etishdir. Gvardiya tarkibi fuqarolarni majburiy harbiy xizmatga chaqirish va armiya xizmatiga oʻz ixtiyori bilan borishilarni birgalikda muvofiqlashtirish asosida tuziladi. Gvardiya zimmasiga bir qancha oʻziga xos vazifalar, jumladan, davlat tantana marosimlarida ishtirok etish yuklatilgan. Shu maqsadda gvardiya tarkibida faxriy qorovul rotasi tuzilgan. Shuningdek, gvardiya zimmasiga alohida muhim davlat obʼektlarini quriqlash vazifasi ham yuklatilgan.

Maxsus qoʻshinlar esa jangovor harakatlarni operativ taʼminlash masalalarini hal etish uchun moʻljallangan. Chegara qoʻshinlari 1999-yil 13-yanvardan boshlab Milliy xavfsizlik xizmati tarkibidan Oʻzbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qoʻmita tarkibiga olib berilgan boʻlib, uning zimmasiga davlat chegaralarini himoya qilish va qoʻriqlashni tashkil etishni taʼminlash vazifasi yuklatilgan.

Ichki qoʻshinlar Ichki Ishlar vazirligi tarkibida tashkil qilingan. Ularning asosiy vazifasi militsiya organlari bilan birgalikda shaharlarda, aholi yashaydigan joylarda, toifalangan xalq xoʻjaligi korxonalarida va boshqa jamoat joylarida jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning huquqiy manfaatlarini himoya qilish, tashkilotlar, idoralar, muassasalarni jinoyatchilikdan va boshqa jamiyatga qarshi harakatlardan muhofaza qilishga qaratilgan.

Milliy xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va tashkilotlarning harbiy tuzilmalarining asosiy vazifasi milliy xavfsizlikni taʼminlashning oʻziga xos vazifalarini bajarish, tabiiy va texnogen tUSDagi favqulodda vaziyatlarni oldini

olish, ularning oqibatlarini tugatish va inson hayotini ta'minlovchi xalq xo'jaligi korxonalarini qo'riqlash hisoblanadi.

Armiya davlat byudjetidan ajratiladigan mablag' hisobiga ta'minlanadi. Har yili mudofaaga ajratiladigan mablag' miqdori Oli Majlis tomonidan tasdiqlanadi. Qurolli Kuchlarga Oliy boshqaruvni Prezident amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga muvofiq Prezident mamlakat Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh Qo'mondoni hisoblanadi.

Bugungi kunda Qurolli Kuchlarni isloh qilishning nihoyasiga yetkazish, yangi tashkiliy tizimga to'la o'tish, qo'shin turlari va xillari boshqaruvining yuksak darajasiga erishish, jangovor tayyorgarlikda va harbiy kadrlarning kasb mahoratini oshirishda yanada yuksak natijalarga erishish yo'lida faol ish olib borilmoqda. Harbiy kasbni tanlovchi yoshlar uchun Toshkent, Samarqand, Farg'ona va Urganch shaharlarida harbiy mutaxassislikka yo'naltiruvchi litseylar faoliyat olib bormoqda.

Toshkent umumqo'shin komandirlari, Samarqand avtomobilchi komandir-muhandislar, Chirchiq tankchi komandir-muhandislar, Jizzax aviatsiya oliy harbiy bilim yurtlari, Toshkent Axborotlar texnologiyasi universitetining maxsus fakulteti Qurolli Kuchlarimiz saflariga turli mutaxassisliklar bo'yicha yuqori malakali ofitser qadrlar tayyorlab beradigan Oliy harbiy ilm o'chog'i hisoblanadi.

Shunday qilib, fuqarolarning burchlari xalq manfaati, har bir fuqaro huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, davlat manfaatlarini himoya qilish maqsadida halol va vijdonan bajarilishi kerak. Fuqarolar o'z burchlarini ongli ravishda amalga oshirsalar, bu ularning yuksak huquqiy madaniyatga ega ekanligini, o'z xalqi va davlatini yuksak qadrlashini ko'rsatadi.

Tayanch tushunchalari huquq va erkinliklar, siyosiy huquqlar, burch, sha'n, qadr-qimmat.

Nazorat savollari.

1. Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlari deganda nimalar tushuniladi?
2. Burchning o'zi nimani anglatadi?
3. Davlat fuqarosiga shu davlat hududida yashab turuvchi hamma shaxslar kiradimi?
4. Shaxsning huquqiy holati nima bilan belgilanadi?
5. Siyosiy, iqtisodiy – ijtimoiy huquqlar deganda nimalarni tushunasiz?
6. Soliqning o'zi nima va nima maqsadda undiriladi.
7. Harbiy mudofaa nima uchun zarur?

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 12, 14, 17, 18, 19, 22, 23, 25.

O'quv kursini o'rganish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar

Rahbariy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: «O'zbekiston», 2003.
2. Karimov I. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. – T.: «O'zbekiston», 1996, 364-bet.
3. Karimov I. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. 2. – T.: «O'zbekiston», 1996, 380-bet.
4. Karimov I. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. – T.: «O'zbekiston», 338-bet
5. Karimov I. Bunyodkorlik yo'lidan. T. 4. – T.: «O'zbekiston», 1996, 339-bet.
6. Karimov I. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T. 6. – T.: «O'zbekiston», 1997, 384-bet.
7. Karimov I. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7. – T.: «O'zbekiston», 1999, 410-bet.

8. Karimov I. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T. 8. – T.: «O'zbekiston», 2000, 528-bet
9. Karimov I. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: «O'zbekiston», 1999.
10. Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O'zbekiston», 1997.
11. Karimov I. Demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. – T.: «O'zbekiston», 2002.
12. Karimov I. Konstitutsiya haqida. – T.: «Akademiya», 2001.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida»gi 2001 yil 4 yanvardagi F-1322 farmoyishi // «Xalq so'zi» gaz., 2000 yil 5 yanvar.

Qonun va me'yoriy hujjatlar

1. «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi 1991 yil 31 avgustdagi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonunchilik asoslari. Xrestomatiya. – T.: «Adolat», 2000.
2. Mustaqillik deklaratsiyasi // O'zbekiston Respublikasi qonunchilik asoslari. Xrestomatiya. – T.: «Adolat», 2000.
3. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi. Inson huquqlari. – T.: «Adolat», 1997.
4. «O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida»gi qonuni. 1991 yil 18 noyabr // O'zbekiston Respublikasi qonunchilik asoslari. Xrestomatiya. – T.: «Adolat», 2000.
5. «O'zbekiston Respublikasining gerbi to'g'risida»gi qonuni. 1992 yil 2 iyul // O'zbekiston Respublikasi qonunchilik asoslari. Xrestomatiya. – T.: «Adolat», 2000.
6. «O'zbekiston Respublikasining madhiyasi to'g'risida»gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonunchilik asoslari. Xrestomatiya. – T.: «Adolat», 2000.

7. «O'zbekiston Respublikasining referendumi to'g'risida»gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonunchilik asoslari. Xrestomatiya. – T.: «Adolat», 2000.
8. O'zbekiston Respublikasining «Tashqi siyosiy faoliyatining asosiy printsiplari to'g'risida»gi qonuni. 1994, 1996 yil 29 dekabr. // O'zbekiston Respublikasi qonunchilik asoslari. Xrestomatiya. – T.: «Adolat», 2000.
9. «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi qonun. 1992 yil 2 iyul. O'zbekistonning yangi qonunlari. 6-son. – T.: «Adolat», 2000.
- 10.«O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonuni. O'zbekistonning yangi qonunlari. 19-son. – T.: «Adolat», 1998.
- 11.O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi qonuni. 1995 yil 30 avgust. O'zbekistonning yangi qonunlari. 10-son. – T.: «Adolat», 1995.
- 12.O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolik to'g'risida»gi Qonuni, 1992 yil 2 iyul. O'zbekistonning yangi qonunlari, 6-son. – T.: «Adolat», 1993.
- 13.O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat, notijorat tashkilotlar to'grisida»gi Qonuni, 1999 yil 14 aprel. O'zbekistonning yangi qonunlari, 13-son. – T.: «Adolat», 1999.
- 14.O'zbekiston Respublikasining «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi qonuni, 1997 yil 26 dekabr. O'zbekistonning yangi qonunlari, 21-son. – T.: «Adolat», 1998.
- 15.O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi yangi tahrirdagi qonuni, 1999 yil 14 aprel. O'zbekistonning yangi qonunlari, 21-son. – T.: «Adolat», 1999.
- 16.O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi qonuni // «Xalq so'zi» gaz., 2001 yil 13 fevral.
- 17.O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi. – T.: «Adolat», 1998.
- 18.O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksiga sharhlar. – T.: «Adolat», 1999.

19. Inson huquqlari to'g'risida xalqaro bill. – T.: «Adolat», 1992.